

# ILG'OR PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI



- EXACT
- NATURAL
- MEDICAL
- TECHNICAL
- ECONOMICS
- PHILOLOGICAL
- PEDAGOGICAL
- MILITARY
- SOCIAL SCIENCES  
AND HUMANITIES



2024

Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998945668868



<https://innoworld.net>



INNOVATIVE  
WORLD

# ILG'OR PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMY JURNALI  
TO'PLAMI

1 - JILD, 1 - SON

2024

 Google Scholar

 doi<sup>®</sup> digital object  
identifier

 ResearchGate

 zenodo

 ADVANCED SCIENCE INDEX

ADVANCED SCIENCE INDEX

 OpenAIRE

 Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2024

## **“DAMAS” RUSUMLI TRANSPORT VOSITALARINING HARA-KATINI TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR**

**Nasirov Ilxam Zakirovich**

t.f.n., professor,

Andijon mashinasozlik instituti

2021 yil 7 may kuni O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti “Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish faoliyatini tartibga solishni yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi [1]. Unga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yo‘lovchilarni yengil avtotransport vositalarida tashish faoliyati lisenziya varaqasiga asosan amalga oshiriladi.

Lisenziya varaqasi 21 yoshga to‘lgan va boshqaruvida arizani berish vaqtida 10 yildan ortiq bo‘lmagan vaqt davomida ekspluatatsiya qilinayotgan avtomobil transporti mavjud bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga “Lisenziya” axborot tizimi orqali beriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar “Akkreditatsiya markazi” DUKda akkreditatsiyadan o‘tgan texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalarida 6 oyda kamida 1 marotaba transport vositasini texnik ko‘rikdan o‘tkazishi shart bo‘ladi.

Yakka tartibdagi tashuvchilar “Uztrans” yagona interaktiv axborot tizimiga ulangan, ko‘p tarmoqli poliklinikalar, xususiy tibbiyot muassasalari, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish sharoiti mavjud bo‘lgan avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuk tashish faoliyatini amalga oshirish uchun lisenziyaga ega bo‘lgan korxonalarda hamda yo‘lovchi tashuvchilarga mijozlarni izlash bo‘yicha interaktiv xizmatlarni ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub‘yektlari tomonidan tashkil qilingan maxsus tekshiruv punktlarida oylik tibbiy ko‘rikdan o‘tishi shart.

Yakka tartibdagi tashuvchilarga yo‘lovchilarni avtomobil transportida tashish faoliyati doirasida xodimlarni ishga yollashga ruxsat etilmaydi. Yakka tartibdagi tashuvchilardan lisenziya varaqasi berilganligi uchun davlat boji yiliga BHMning 1 baravari miqdorida (hozirda 245 ming so‘m) undiriladi. Bunda davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun yig‘im undirilmaydi [2,3].

Andijon shahrida eng ko‘p yo‘lovchi tashiydigan transport vositasi bu- «Damas» avtomobilidir. Shahar ichida «Damas»lar qatnaydigan yo‘nalishlarni yer usti metrosi ham deyishadi [3]. “Damas” rusumli transport vositasi avtobus va mikroavtobuslarga qaraganda tezkor hamda ushbu avtomobilda manyovr qilish qulayroq ag‘darilishga turg‘un emas. Bu esa o‘z navbatida sodir etilayotgan yo‘l-transport xodisalarining yuqori salmog‘i boshqa rusumli transport vositalariga nisbatan “Damas” rusumli transport vositalari to‘g‘ri kelayotganligi tahlillarda yaqqol namoyon bo‘lib turibdi.



Xozirgi kunda viloyat hududida 320 mingdan ortiq transport vositalari mavjud bo'lsa, shundan 24 foizi ya'ni 80 mingtasini "Damas" rusumli transport vositalari tashkil etadi hamda viloyatda yo'lovchi tashish faoliyatida keng foydalaniladigan asosiy transport vositalaridan biri hisoblanadi [4].



1- rasm. Yo'nalishdagi taksida qo'llanilayotgan «Damas» avtomobillari



2- rasm. Yo'nalishdagi taksida qo'llanilayotgan «Damas» avtomobillari

Tahlillarga ko'ra, 2023 yil davomida "Damas" ishtirokida 228 ta (umumiy yo'l-transport hodisasining 30 foizi) yo'l-transport hodisalari sodir bo'lgan bo'lsa, shundan 50 foizi yoki 113 tasi piyoda va velosipedchini urib

yuborish, 45 foizi ya'ni 104 tasi to'qnashuv va 5 foizi ya'ni 11 tasi boshqa turdagi yo'l-transport hodisalarini tashkil etadi [5].

Shuningdek, "Damas" haydovchilari tomonidan 38 ming 500 dona (umumiy aniqlangan qoidabuzarliklarning 21 foizi) qoidabuzarlik sodir etilganligi aniqlanib, ularga nisbatan qonuniy chora ko'rilgan.

Qoidabuzarliklardan 23 foizi yoki 8 ming 598 tasi qo'pol turdagi, 9 foizi yoki 3 ming 256 tasi piyodaga yo'l bermaslik, 1 foizi yoki 361 tasi mast holda transport vositasini boshqarish va 67 foizi ya'ni 26 ming 285 tasi boshqa turdagi qoidabuzarliklarni tashkil etadi.

Tahlillardan kelib chiqib, viloyat hududida harakat xavfsizligini ta'minlash xususan, "Damas" ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarini oldini olish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi [6].

Jumladan:

Viloyatdagi jami 189 ta yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi uyushmalar haydovchilari tomonidan sodir etgan qoidabuzarliklar sonini inobatga olib toifalarga ajratildi.

"Qizil"- haydovchilari tomonidan 25 va undan ortiq qoidabuzarlik sodir etgan uyushmalar 47 ta;

"Sariq"- haydovchilari tomonidan 5 tadan 24 tagacha qoidabuzarlik sodir etgan uyushmalar 101 ta bo'lib, umumiy transport vositalari 1206 ta shundan 1134 tasi Damas;

"Yashil"- haydovchilari tomonidan 4 tagacha qoidabuzarlik sodir etgan uyushmalar 41 ta bo'lib jami transport vositalari soni 282 ta shundan 82 tasi "Damas" rusumli transport vositasini tashkil etadi.

"Qizil" toifadagi 47 ta uyushmalarning haydovchilari tomonidan 3441 ta qoidabuzarlik sodir etilgan bo'lib, shundan 99,2 foizi ya'ni 3413 tasi "Damas" haydovchilari tomonidan sodir etilganligi aniqlandi [7].

Mazkur qoidabuzarliklarni kelib chiqish sabablari va kelgusida ularni oldini olish bo'yicha Transport boshqarmasi, uyushma rahbariyati va jamaotchilik bilan hamkorlikda har bir uyushmalarda haydovchilar o'rtasida muhokama yig'ilishlari o'tkazilib, uyushma rahbarlaridan haydovchilarni yo'l harakati qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilishlarini ta'minlash bo'yicha tilxatlar olinib, har bir uyushma uchun yuritilgan yig'ma jildlarga tikib borilmoqda.

Shu kabi profilaktik tadbirlar "sariq" va "yashil" toifadagi uyushmalarda ham muntazam ravishda amalga oshirilib kelinmoqda.

Shuningdek, kunlik o'tkazilayotgan yo'riqnomalarda "Damas" haydovchilari tomonidan sodir etilayotgan qoidabuzarliklarga alohida e'tibor qaratilishi va ularga nisbatan murosasiz chora ko'rilishi bo'yicha ko'rsatmalar berib boriladi.

O'tkazilayotgan nazorat reytda tadbirlari natijasida, joriy yilning 4 oyi davomida "Damas" haydovchilari tomonidan sodir etilgan jami 38 ming 356 ta



(bir kunda o'rtacha 330 tadan) qoidabuzarlik aniqlanib ularga nisbatan qonuniy chora ko'rildi.

Ma'lumot uchun: 3795 ta holatda qizil chiroqqa bo'ysunmasdan o'tish hamda "stop" chizig'ini bosish, 2277 ta holatda piyodalarga yo'l bermaslik, 1600 ta holatda quvib o'tish qoidasini buzish va 1429 ta holatda odam tashish qoidalarini buzish hamda 12688 ta boshqa holatlarni tashkil etadi.

Shuningdek, foto va video moslamalar orqali 16 ming 567 ta qoidabuzarliklar aniqlangan.

2024 yil 15 yanvar kuni tasdiqlangan hamda joriy yilning 1-chorak davomida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish" bo'yicha ishlab chiqilgan yo'l haritaning tegishli bndlari ijrosi yuzasidan "Damas" rusumli transport vositasida yo'lovchi tashish faoliyatini tartibga solish bo'yicha viloyat Transport boshqarmasi bilan hamkorlikda qo'shma reja ishlab chiqildi. Qo'shma rejaga asosan o'tkazilgan tadbirlar davomida "Damas" rusumli transport vositasi haydovchilari tomonidan sodir etilgan 3813 ta qoidabuzarliklar aniqlanib, qonuniy chora ko'rildi.

Ma'lumot uchun: 2829 ta holatda lisenziyasiz aholiga pullik xizmat ko'rsatish, 246 ta holatda belgilangan yo'nalishni o'zgartirish

Yo'l bo'yida joylashgan maktablar oldidagi havfli piyodalar o'tish joylarida harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida 10 dona quyosh energiyasida ishlaydigan ko'chma svetofo qurilmalari hamda 100 ta joyga o'rnatish maqsadida 1000 metr sun'iy notekisliklar uchun viloyat hokimligi tomonidan 400 (to'rt yuz) million so'm miqdorida mablag' ajratildi.

Viloyat hududida "Damas" rusumli transport vositasi harakatini tartibga solishda bir qator muammolar mavjud [8,9]:

1. Damas rusumli transport vositasida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanish viloyatda o'zini o'zi band qilishning ommalashgan turiga aylanganligi sababli 18 yoshga to'lgan fuqaro qo'lida xunari yoki ish joyi tayin bo'lmasa, haydovchilik guvohnomasini olgan zaxoti Damas transport vositasida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Xaydovchilarning aksariyatini 18 dan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar tashkil qilmoqda. Sababi katta investisiya talab qilinmaydi, soliq to'lanmaydi va hakazo. 1 ta Damas haydovchisi bir kunda o'rtacha 250 ming so'mdan 400 ming so'mgacha daromad qiladi. Bu degani oyiga 7.5 mln. so'mdan 12 mln.so'mgacha daromad degani. Avtobus saroylarida esa "D" toifaga ega tajribali haydovchilarning oylik maoshi ko'pi bilan 4 mln. so'mni tashkil qilmoqda. Shuningdek, avtobuslar yo'nalish bo'yicha faqatgina bekatlarda to'xtay oladi, "Damas" esa xuddi shu yo'nalishda yo'lovchilarning istaklari bo'yicha xoxlagan joyda to'xtashi mumkin. Bu esa o'z navbatida jamoat transportini rivojlantirish uchun to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Bundan tashqari, Xitoy xalq respublikasidan kirib kelayotgan haydovchining o'rindig'idan tashqari 8 ta

o'rindiqqa ega bo'lgan (Damasda haydovchining o'rindig'idan tashqari 6 ta o'rindiq mavjud) "B" toifa bilan boshqarish huquqini beruvchi "JAG" rusumli "yengil" turdagi tezkor transport vositalarida ham aholiga pullik xizmat ko'rsatish urf bo'lmoqda. Ushbu turdagi transport vositalarining yoqilg'i xarajati "Damas" rusumli transport vositasi bilan bir xil bo'lsa-da lekin ko'proq yo'lovchilarni tashiydi hamda "B" toifa bilan boshqarsa bo'ladi. To'g'ri, qanchadir fuqarolar ushbu yo'nalishda band bo'layotgandir lekin havfsizlik nuqtai nazardan fuqarolarning sog'ligi va hayoti hych qaysi mutasaddi tashkilotlarni havotirga solmayapti.

2. Lisenziyasiz aholiga pullik xizmat ko'rsatilganligi uchun jazo sanksiyasi xozirgi kunga kelib ancha yengillashtirilgan (25 BXMdandan 7 BXMGacha kamaytirilgan). Uyushmalar faoliyatini tekshirish uchun vakolat chegaralanganligi sababli, haydovchilarni tibbiy ko'rikdan va transport vositalarni texnik ko'rikdan o'tkazish jarayonlari pitaklarda, yo'llarda yo'l varaqaga faqatgina pechat bosib berish bilan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, viloyat hududida 290 ming M1 toifadaga transport vositalari ro'yxatga olingan bo'lsa shundan, 80 mingtasi ya'ni 27.5 foizini "Damas" rusumli transport vositasi tashkil qiladi. 50 mingtaga yaqini yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan bo'lsa-da, xozirgi kunda atiga 5700 tasi lisenziyalangan xolos.

Lisenziyasiz faoliyat yuritayotgan "Damas" haydovchilariga chora ko'rish uchun esa Transport nazorat inspeksiyasi Andijon viloyati xududiy bo'limida shtat bo'yicha atiga 12 ta inspektor ajratilgan xolos.

3. Ertalabki tig'iz (chaspik) vaqtda viloyatning barcha shahar va tumanlaridan Andijon shahriga ishga, o'qishga, bozorlarga, shifoxonalarga va boshqa maqsadlarda fuqarolarni olib kelayotgan "Damas" haydovchilari kechki tig'iz (chaspik) vaqtiga qadar Andijon shahrida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanishmoqda. Sababi, yo'nalish sxemasidan chetga chiqqanlik uchun ta'sir chorasi normativ xujjatlarda ko'rsatib o'tilmagan. Bu esa o'z navbatida Andijon shahrida tartibsizlik va sun'iy tirbandliklarni keltirib chiqarmoqda [10].

"Damas" rusumli transport vositalarining harakatini tartibga solish uchun bir qator ishlar amalga oshirildi, jumladan 2022-yilda prezidentimiz [Sh.M.Mirziyoyev](#) topshirig'i bilan Andijon jamoat transport tizimiga e'tibor qaratildi va shaharda "[Alpomish merosi](#)" MChJ tashkil etildi. Hozirda mazkur MChJ da 1, 24, 75, 222, 394 raqamli 100 ad ortiq zamonaviy avtobuslar aholiga sifatli xizmat ko'rsatmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. Intellektual transport tizimlari. Darslik. ISBN 978-9910-799-39-6. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 227 b.

2. Transport vositalarining bort axborot tizimlari. Darslik. ISBN: 978-9910-08-049-4. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 140 b.
3. Texnik ijodkorlik asoslari. O'quv qo'llanma. ISBN 978-9910-776-38-0. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 330 b.
4. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3589–3591.  
<https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.
5. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.
6. Насиров Ильхам Закирович, Махмудов Озодбек Эркинбаевич. ВЛИЯНИЕ ТРАНСПОРТНОГО ПОТОКА НА АТМОСФЕРНЫЙ ВОЗДУХ ГОРОДА// "Социально-экономические и технические системы: исследование, проектирование, оптимизация", №3(95), 2023 год, с. 121-127.
7. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi. (2023). YO'L BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH . Journal of New Century Innovations, 21(4), 122–127. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3070>
8. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Maxmudov Ozodbek Erkinboevich. (2023). SANOAT KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRIDA LOGISTIK JARAYONLARNI TAKOMILASHTIRISH. Scientific Impulse, 1(8), 493–499. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/6478>
9. Gaffarov Maxammatzokir Toshtemirovich, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2023). YANGI O'LCHOVLARDA EVROPA XAVFSIZLIGI. EVROPA ITTIFOQIDA YASHIL KELISHUV ISTIQBOLLARI. Scientific Impulse, 2(15), 935–942. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13051>
10. Насиров Илхам Закирович, Хайдаров Муроджон Акбаралиевич. ШАҲАР ЖАМОАТ ТРАНСПОРТИНИНГ АСОСИЙ ЭКСПЛУАТАЦИОН КЎРСАТКИЧЛАРЛАРИ// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI- 5 DEKABR / 2023 YIL / 34 -SON, 138-143 б.



## SHAHAR CHORRAHALARI UCHUN AVTOMOBILLARDAN CHIQUYOTGAN ZAHARLI MODDALAR MIQDORINI ANIQLOVCHI QURILMANING AFZALLIKLARI

**Nasirov Ilxam Zakirovich**

t.f.n., professor,

Andijon mashinasozlik instituti

Bugungi kunda kundan-kunga rivojlanayotgan davrimizning eng katta muammolaridan biri- tabiatning ifloslanishidir. Insonlar o'zlari bilib, bilmagan holda tabiatga katta zarar keltirmoqdalar. Har yili ko'plab insonlar avtomobillardan chiqadigan chiqindi va gazlar bilan bog'liq kasalliklar, shuningdek ularning shovqinlardan aziyat chekmoqdalar. Bugungi kunda bu jarayon har bir mamlakatga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Achinarlisi, bunday o'zgarishlar O'zbekistonda ham mavjud. Hozirgi paytda bir yilda organik yonilg'ilarning sarfi 10 mlrd tonna atrofida ekanligi ma'lum bo'lsa, ularning oksidlanishi uchun taxminan 27 mlrd tonna kislorod talab etiladi. Atmosferada to'planadigan kislorodning bir yillik zahirasi 200- 240 mlrd tonna ekani ma'lum bo'lsa, yaqin yillar ichida sarflanadigan kislorod miqdori uning qayta tiklanadigan minimal darajasidan oshib ketishi mumkin [1,2].

Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda havo tarkibidagi kislorod hozirgi vaqtda 21% ni tashkil qiladi va bu miqdor 14% ga kamayadigan bo'lsa, deyarli ko'pchilik tirik organizmlar, shu jumladan insoniyat xam kritik holatga tushib qoladi. Atrof-muhit ifloslanishining turli shakllari tufayli 2015 yilda jahon iqtisodiyoti 4,6 trillion dollar yo'qotdi (jahon yalpi ichki mahsulotining 6,2 foizi). Tadqiqot mualliflari atrof-muhitning ifloslanishidan o'lim holatlarini kamaytirish bo'yicha sakkizta tavsiyani ilgari surdi, bunda monitoringni yaxshilash, hisobotlarni takomillashtirish hamda sanoat va avtomobil transportini davlat tomonidan qattiqroq tartibga solish zarurligi ta'kidlangan [3].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, XXI asrga kelib insoniyat atmosferaga tabiiy ravishda zaharli gazlar bilan ifloslanishidan 170 marta ko'proq zaharli gaz chiqarmoqda, bunga sabab bo'layotgan asosiy to'rt omilning ichida eng katta ulush aynan transport sohasiga to'g'ri keladi-40%, qishloq xo'jaligi va maishiy xizmatlar 24%, energetika sanoati-20%, ishlab chiqarish-14% ni tashkil qiladi [4].

Oxirgi yillarda dunyo bo'yicha avtomobil ishlab chiqarish ko'rsatgichi yildan yilga o'sib bormoqda, 2000 - 2005 yillarda 60 mln atrofida o'rtacha yillik avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2010 yildan so'ng ishlab chiqarish keskin o'sganligini kuzatishimiz mumkin, xususan, 2010 yilda 77,86 mln, 2015 yilda 90,78 mln, 2018 yilda 95,7 mln, 2019 yilda 90,864 mln, 2020 yilda 77,62 mln va 2021 yilda 79 mln dona avtomobil ishlab chiqarilgan [5].

Avtomobil transporti majmuasining ekologik xavf tug'diruvchi chiqindilar manbalarini me'yorlash talablarini joriy etish atrof-muhitga zaharli ta'sir etishni kamaytiradi va ularning ma'lum chegaraviy miqdorlaridan oshib ketmasligini ta'minlaydi. Ekologik me'yorlash tabiiy ekotizimlarga nisbatan ruxsat etilgan yuklanishlarni hisobga olgan holda avtomobil transporti majmuasining zaharli manbalari tirik organizmlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi va tabiiy muhit sifatining buzilishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

Avtomatik aniqlovchi qurilma shahar yo'llarida avtomobillardan chiqayotgan zaharli gazlar miqdorini real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar yordamida ifloslanish darajasini aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish osonlashadi. Bu esa, o'z navbatida, havo sifati va ekologik muhitning yaxshilanishiga olib keladi. Bunday qurilma havo tarkibida karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ), azot oksidlari ( $\text{NO}_x$ ), va uglerod oksidi ( $\text{CO}$ ) kabi moddalarni aniq o'lchab beradi, bu esa ifloslanishni nazorat qilishda katta yordam beradi [6].

Avtomobil chiqindilarini kuzatish va nazorat qilish qurilmasi yordamida hukumat havo ifloslanishini kamaytirish bo'yicha rejalashtirilgan choralarni amalga oshirishga qodir bo'ladi. Avtomobillardan chiqayotgan zaharli moddalar darajasini aniqlash orqali shahar transport tizimlarini texnik xizmat va yangilanish talablariga rioya etishga majbur qilish mumkin. Bu esa iqtisodiy jihatdan ham tejamkorlikni ta'minlaydi. Chunki o'z vaqtida qabul qilingan chora-tadbirlar ko'proq xarajat talab qiladigan og'ir muammolarni oldini olishga yordam beradi.

Havo ifloslanishining kamayishi odamlarning sog'lig'iga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Avtomobillardan chiqayotgan zaharli moddalar miqdorini real vaqtda aniqlash va nazorat qilish orqali havoning sifati yaxshilanadi va bu esa shahar aholisining sog'lig'ini saqlashga yordam beradi. Yig'ilgan ma'lumotlar sog'liqni saqlash sohasidagi tadqiqotlarda va ifloslanish sababli kelib chiqadigan kasalliklar profilaktikasi uchun foydalanilishi mumkin [7,8].

Avtomobillar chiqindilarining me'yorlarga mosligini avtomatik ravishda kuzatib borish orqali ifloslanish darajasi o'lchanganida, bu ma'lumotlar hukumat organlariga va jamoatchilikka taqdim etiladi. Bu esa ekologik qonunchilik va sanitariya qoidalariga rioya qilishni ta'minlash imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda, shahar hokimiyatlari va davlat idoralari ifloslanishni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar va jarimalarni samarali ravishda qo'llashi mumkin.

Ushbu qurilmalar yig'ayotgan katta hajmdagi ma'lumotlar orqali ifloslanish darajasini tahlil qilish va bashorat qilish osonlashadi. Statistik va analitik tahlillar yordamida kelajakda ifloslanishni kamaytirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Masalan, ifloslanishning yuqori

darajasi qayd etiladigan vaqtlarda yoki manbalarda qatnov cheklovlarini kiritish orqali shahar havo sifatini yaxshilash mumkin.

Avtomobillardan chiqayotgan zaharli moddalarni aniqlashga mo'ljallangan avtomatik qurilmalar texnologik rivojlanishning yana bir ko'rinishidir. Ular ishlab chiqaruvchilarni va ekologik xavfsizlik sohasida faoliyat olib borayotgan kompaniyalarni innovatsion yechimlar yaratishga rag'batlantiradi. Ushbu qurilmalar, nafaqat texnologiyalarni rivojlantiradi, balki yangi ekologik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish jarayonini tezlashtiradi [9,10].

Shahar chorrahalarida avtomobillardan chiqayotgan zaharli moddalar miqdorini avtomatik aniqlovchi qurilmalar ekologik xavfsizlik va sog'liqni saqlashni yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Ushbu qurilma orqali olingan real vaqtdagi ma'lumotlar atrof-muhitni muhofaza qilish, ifloslanishni kamaytirish, va iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim rol o'ynaydi. Bu kabi texnologiyalar yordamida shaharlarni yanada sog'lom va yashash uchun qulayroq qilish mumkin. Shu sababli, avtomobillardan chiqayotgan zaharli moddalarni nazorat qilish va ularning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan bunday innovatsiyalarni shahar infratuzilmasiga kiritish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

#### ADABIYOTLAR

1. Intellektual transport tizimlari. Darslik. ISBN 978-9910-799-39-6. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 227 b.
2. Transport vositalarining bort axborot tizimlari. Darslik. ISBN: 978-9910-08-049-4. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 140 b.
3. Texnik ijodkorlik asoslari. O'quv qo'llanma. ISBN 978-9910-776-38-0. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 330 b.
4. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.
5. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.
6. Насиров Ильхам Закирович, Махмудов Озодбек Эркинбаевич. ВЛИЯНИЕ ТРАНСПОРТНОГО ПОТОКА НА АТМОСФЕРНЫЙ ВОЗДУХ ГОРОДА// "Социально-экономические и технические системы: исследование, проектирование, оптимизация", №3(95), 2023 год, с. 121-127.



7. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi. (2023). YO'L BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH . *Journal of New Century Innovations*, 21(4), 122–127. Retrieved from

<http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3070>

8. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Maxmudov Ozodbek Erkinboevich. (2023). SANOAT KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRIDA LOGISTIK JARAYONLARNI TAKOMILASHTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(8), 493–499. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/6478>

9. Gaffarov Maxammatzokir Toshtemirovich, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2023). YANGI O'LCHOVLARDA EVROPA XAVFSIZLIGI. EVROPA ITTIFOQIDA YASHIL KELISHUV ISTIQBOLLARI. *Scientific Impulse*, 2(15), 935–942. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13051>

10. Насиров Илхам Закирович, Хайдаров Муроджон Акбаралиевич. ШАҲАР ЖАМОАТ ТРАНСПОРТИНИНГ АСОСИЙ ЭКСПЛУАТАЦИОН КЎРСАТКИЧЛАРЛАРИ// ИЈОДКОР О'ЎҚИТУВЧИ JURNALI-5 DEKABR / 2023 YIL / 34 -SON, 138-143 б. <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/8554/8741>

 INNOVATIVE  
WORLD

## АВТОМОБИЛНИНГ СЎНДИРГИЧЛАРИНИ ТАЪМИРЛАШ УСУЛЛАРИ

**Насиров Илхам Закирович** - т.ф.н., проф.

**Қўзиболаева Дилноза Тўхтасиновна** - таянч докторант.

Андижон машинасозлик институти, Андижон ш., Ўзбекистон

Бир вақтлар автомобиллар умуман сўндиргичларсиз ишлаган. Қисқа чиқариш қувурларидан тутун булутлари пайдо бўлиб, улар ўша пайтдаги двигателларнинг камтарона имкониятларига мутлақо мос келмайдиган даҳшатли шовқин чиқарар эдилар. Бироқ, атрофдаги пиёдаларнинг норозиликлари (ўша пайтда уларнинг сони кўпроқ эди), шунингдек, отларга тушадиган ваҳима (улар ўша пайтлар транспортида асосий тортиш кучи бўлган) шовқинни камайтириш қурилмаларининг зарурлигига олиб келди. Биринчи сўндиргич "Панар-Левассор" автомобилига 1894 йилда ўрнатилган [1].




1-расм. "Панар-Левассор" автомобили

Есимда, 1994 йилда ҳеч ким автомобил сўндиргичнинг юз йиллигини нишонламади, лекин бу нотўғри. Чунки, бу оддий қурилма янги транспорт воситаси- автомобилни тан олинишида муҳим рол ўйнаган. Автомобиллар томонидан ишлаб чиқарилган овоз даражаси мақбул даражага туширилганда, ҳамма тўсатдан, бу ғалати экипажлар ёнида яшаш мумкинлигини тушунди... Албатта, бу автомобил тарихини бироз соддалаштириш, аммо ўшандан бери ҳеч бир автомобил сўндиргичсиз ишлаб чиқарилмаган [2,3].

Сўндиргичсиз автомобил бўлиши мумкинми? Асосан, ҳа. Шовқин даражаси муҳим бўлмаган муайян шароитларда- масалан, автомобил пойгаларида. Ҳар қандай қулайлик- харажатсиз бўлмайди ва сўндиргич ҳам бундан мустасно емас- у двигател қувватининг бир қисмини тортиб олади, шунинг учун пойга автомобиллари, қоида тариқасида, сўндиргичлар билан жиҳозланмаган. Бироқ, сўндиргични автомобилдан

олиб ташлашга арзийди ва у тезроқ кетади деб ўйламаслик керак- бу кенг тарқалган нотўғри тушунча.

Замонавий автомобилнинг чиқариш такти бу двигателга махсус мослаштирилган мураккаб ва аниқ ҳисоблаб қўйилган тизимдир. Ушбу тактнинг параметрлари- ишчи ҳажм ва қувват, шунингдек сиқиш даражаси ва двигателнинг айланиш тезлиги каби хусусиятлар билан боғлиқ. Сўндиргич резонатори параметрларнинг ўзгартирилса нима бўлади? Қувват ортиши, ўзгармаслиги ёки ҳатто камайиши мумкин! Буларнинг барчаси маълум бир автомобилнинг хусусиятларига боғлиқ [4-6].



2-расм. Автомобил сўндиргичи

Бундан ҳам эҳтиётсиз ечим- автомобилга бошқа автомобилнинг сўндиргичини қўйиш бўлади- натижани олдиндан айтиб бўлмайди, ҳатто унинг ўлчамига ва маҳкамлагичларига мослаштириш мумкин бўлса ҳам. Молиявий қийинчиликлар кўпинча автомобил эгасини ғалати техник ечимларга ундайди. Бу қандайдир даражада сўндиргичлар учун ҳам амал қилади. Агар автомобил тўсатдан ўзидан бошқа овозда чиқарса ва визуал диагностика унинг сўндиргич эканлигини тасдиқласа, уни алмаштириш ягона оқилона ечим бўлади. Аммо, афсуски, ҳар доим ҳам арзон емас... Бу, айниқса, бизнинг шаҳарларимиз кўчаларида аллақачон кўп бўлиб бораётган хорижий автомобиллар учун тўғри келади: кўпинча янги сўндиргичнинг нархи автомобилнинг қолдиқ қийматига яқин бўлиб қолиши мумкин [7,8].

Агар автомобилнинг сўндиргичи ишдан чиққан бўлса ва уни алмаштиришнинг иложи бўлмаса, унда бир нечта мурасали ечимлар мавжуд.

Агар сўндиргич механик равишда шикастланган бўлса (масалан, у тошга урилган бўлса), уни оддий қувур каби газ билан пайвандлаш орқали сақлаб қолиш учун яхши имкониятлар мавжуд. Аммо шуни ёдда тутиш керакки, қувурдан фарқли ўлароқ, сўндиргич жуда оғир шароитларда ишлайди- чиқинди газлар уни юқори ҳароратгача иситади ва қўлмақлардаги сувлар унинг ташқарисига сочрайди. Шундай қилиб, бундай таъмирлаш натижаларига танқидий муносабатда бўлиш керак: пайвандлаш жойида коррозияга чидамлилиги сезиларли даражада камаяди ва сўндиргични шу тарзда ямоқлаш бажарилганида- бу



операцияни ҳар икки йилда бир марта такрорлаш шарт бўлиб қолади [9-14].

Агар сўндиргич оддий коррозия натижасида "чириб кетган" бўлса, унда пайвандлаш катта эҳтимол билан ёрдам бермайди. Корпуснинг сиртига пайвандланган қалин металл ямоқлар бир мунча вақт ишлашга ёрдам бериши мумкин (қалин металл зангга узоқроқ қаршилиқ кўрсатади). Бироқ, эҳтимол бунда бошқа муаммога дуч келиш мумкин: сўндиргичнинг ички қисмлари занглаб, чириб кетган бўлиши мумкин. Натижада корпусга қанча металл пайвандланишидан қатъи назар, ички деталларнинг чириши ва тез орада парчаланиши содир бўлади. Бундай сўндиргич ташқаридан жуда яхши кўринишга эга бўлиши мумкин, аммо моҳиятан у кўпроқ "ҳайқириқли қурол" бўлади [15,16].

Агар сўндиргич қайтариб бўлмайдиган даражада ишламай қолган бўлса ва молиявий ёки техник сабабларга кўра уни алмаштириш имконсиз бўлса (масалан, ноёб хорижий автомобил бўлса), унда битта чиқиш йўли бор- чириган жой учун мавжуд бўлган энг мос қисмни излаш. Албатта, бундай ечим вақтинчалик бўлади- двигател параметрлари олдиндан айтиб бўлмайдиган даражада ўзгаради- лекин буни ҳаёт кўрсатади!

Фақат бир нечта оддий принципларни эслаб қолиш керак.

Биринчидан, донор автомобил ҳажми ва қуввати жиҳатидан сезиларли даражада кичикроқ двигателга эга бўлмаслиги керак, акс ҳолда унинг сўндиргичи шунчаки кучлироқ қабул қилувчи двигателни "бўғиб қўяди" [17,18]. Масалан, "Дамас" автомобилнинг сўндиргичини "Нексия" автомобили сўндиргичига ўрнатишингиз мумкин, аммо у фақат керакли етмишта отнинг нафас олишигагина имкон беради... Бу ечим таниқли ва ёмон ҳазилга ўхшайди- чиқариш трубасига картошкани тиқиб қўйишга...

Иккинчидан, иккала автомобил двигателларининг параметрлари иложи борица бир-бирига яқинроқ бўлса яхшироқ бўлади.

Учинчидан, пайвандлаш ишлари минимал бўлиши керак- иккала автомобил двигателлари сўндиргич қувурларининг диаметрлари мос келиши керак. Бу иш ўзининг мураккаблиги билан эмас, балки қувурнинг ўтиш қисмини камайтирадиган ёки кўпайтирадиган ҳар хил адаптерлар чиқинди газ оқимида кучли турбулентлик ҳосил қилиши билан боғлиқ бўлиб, бу баъзан шовқиннинг кучли ўсишга ва самарали двигател қувватининг пасайишига олиб келади. Уланган қувурларнинг ҳеч бири икки ҳафтадан кўпроқ вақт давомида йўл шароитларига бардош бера олмайди ва уларнинг аксарияти сочрайдиган сувдан ҳам кўрқишади... Шунинг учун пулни беҳуда сарфламасдан дарҳол янги сўндиргични топиш ва сотиб олишга ҳаракат қилиш керак.

### Адабиётлар

1. П. Иевлев. (журнал "Автомаг" N16/2001).
2. Насиров Илхам Закирович, & Кузиболаева Дилноза Тухтасиновна. (2022). Результаты испытаний электролизеров. *Journal of New Century Innovations*, 17(1), 119–120. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/876>
3. Насиров Илхам Закирович- т.ф.н., доцент, Қўзиболаева Дилноза Тўхтасиновна- изланувчи. Андижон машинасозлик институти, Ўзбекистон. "Ички ёнув двигателларининг энергетик ва экологик кўрсаткичларини яхшилаш". Research and education issn: 2181-3191 volume 1 | issue 7 | 2022 Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.628 <http://sji factor.com/passport.php?id=22258>.
4. Закирович, Н. И., Жалолiddин ўғли, А. С., & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). "Экологические преимущества использования отходов." *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 345–351. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247>
5. Nasirov Ilham Zakirovich- candidate of technical sciences, associate professor; Kuzibolaeva Dilnoza Tukhtasinovna- doctoral student. Abbasov Saidolimkhon Zhabliddin ugli- doctoral student; Andijan Machine-Building Institute, Uzbekistan "Analysis of Automobile Mufflers"// "Texas Journal of Engineering and Technology" ISSN NO: 2770-4491 <https://zienjournals.com> Date of Publication:07-01-2023.
6. Ilkham Z. Nasirov, Dilnoza T. Kozibolaeva, Saidolimkhon Z. Abbasov Andijan Machine-Building Institute, Andijan, Uzbekistan \*E-mail: [nosirov-ilhom59@mailr](mailto:nosirov-ilhom59@mailr) "New Approaches To Cleaning Exhaust Gases Of Internal Combustion Engines." *Texas Journal of Engineering and Technology* ISSN NO: 2770-4491 <https://zienjournals.com> Date of Publication:08-06-2023 Peer Reviewed International Journal [46] Volume 21.
7. Nasirov I.Z. *Intellectual transport tizimlari. Darslik. ISBN 978-9910-799-39-6. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 227 b.*
8. Nasirov I.Z. *Transport vositalarining bort axborot tizimlari. Darslik. ISBN: 978-9910-08-049-4. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 140 b.*
9. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich, Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.
10. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich, Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.
11. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi. (2023). YO'L BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH. *Journal of New Century Innovations*, 21(4), 122–127. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3070>
12. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2023). YANGI O'LCHOVLARDA EVROPA XAVFSIZLIGI. EVROPA ITTIFOQIDA YASHIL KELISHUV ISTIQBOLLARI. *Scientific Impulse*, 2(15), 935–942. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13051>
13. Насиров, И. З. (2023). КАФЕДРАДАГИ ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ИШЛАШИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. *PEDAGOG*, 6(2), 299-302.

14. Nasirov , I. (2023). CONDUCTING LESSONS IN THE “MENTAL ATTACK” METHOD. *International Conference On Higer Education Teaching*, 1(1), 86-89. Retieved from <https://aidlix.comphp/aeticle/view/90>
15. Насиров Ильхам Закирович. (2022). МУСТАХИЛ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ШАКЛЛАРИ. *Конференц-зона* , 327–332. Получено с <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/867>
16. Насиров Илхам Закирович. (2023). ИНСОН ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ДАРАЖАЛАРИ . *Journal of New Century Innovations*, 21(4), 118–121. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3069>
17. Zakirovich, N. I. , & Mahammadovna , S. I. . (2023). LEVELS OF DEVELOPMENT OF HUMAN ABILITIES. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 341–344. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5245>
18. Закирович, Н. И. , Жалолиддин ўғли, А. С. , & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТХОДОВ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 345–351. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247>



INNOVATIVE  
WORLD



## SOTSIATIV NUTQIY AKTLAR

**H.R.Zakirova**

Andijon davlat universiteti dotsenti.

**T. Madaminova**

Andijon davlat universiteti 4-bosqich talabasi

### Annotatsiya

Maqolada nutqiy akt va ularning turlari haqida ma'lumot beriladi. Sotsiativ nutqiy aktlar turlaridan biri bo'lgan "kechirim" nutqiy akti tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar va iboralar:** *nutqiy akt, illokutiv aktlar, perlokutiv aktlar, komaititiv, konvivial, kollaborativ, konfliktiv, kechirim nutqiy akti.*

### Аннотация

В статье идет речь о речевом акте и его разновидности. Анализируется один из социальных речевых актах речевой акт извинения.

**Ключивые слова:** *речевой акт, иллокутивный акт, перлокутивный акт, комаититивный, конвивиальный, коллаборативный, конфликтивный, акт прощения.*

### Annotation

The article will provides information about speech acts and their types. The speech act "forgiveness", which is one of the types of social speech acts, is analyzed.

**Base words and phrases:** *speech act, illocutionary acts, perlocutionary acts, comitative, convivial, collaborative, conflictive, a speech act of forgiveness.*

Insonlarning so'zlash va yozish faoliyatlari til bilan bog'liq. Bu faoliyatlar jarayonida *buyurish, ogohlantirish, va'da berish* kabi mazmuni ifodalash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. J.Ostin fikricha, har bir gap talaffuz qilinganda, o'z ma'nosidan tashqari, ma'lum bir harakat bajariladi, ya'ni biror bir voqea haqida darak-xabar beradi, bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, biror narsa iltimos qilinadi, taqiqlanadi yoki buyruq, maslahat, ijozat beriladi, va'da yoki taklif qilinadi va hakazo [1,72]. Demak, nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir.

Nutq aktlari nazariyasi ma'lum nutqiy janr xossalarini o'rganuvchi, ularning tuzilishi, inson tomonidan ma'lum maqsadga erishish nuqtai nazaridan til birliklarini qo'llashini tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Nutq aktlari nazariyasida kommunikatsiyaning asosiy birligi gap yoki so'z ifodasi bo'lmay, ma'lum bir faoliyatni bajarish deb hisoblanadi, ya'ni *tasdiqlash*,

*iltimos, savol, buyruq, minnatdorlik bildirish, kechirim so'rash, tabriklash* va hokazo. Har bir tilning *kechirim so'rash, iltijo, ishontirish, iltimos, yalinish* kabi nutqiy harakatlari milliy o'ziga xoslikka ega bo'ladi.

Bunday faoliyat natijasida nutqiy janrlarning tipi aniqlanadi, ya'ni yuqorida ko'rsatilgan ma'lum bir faoliyat bajarilishi natijasida nutqiy janr turlari reallashadi. Demak, nutqiy aktlar nazariyasi, aslida, nutqiy janrlar xossalarini o'rganadi.

Bu kabi nutq aktlari, ya'ni nutqiy janrlar matnlari illokutiv aktlar deyiladi va hamma narsaning ziddi bo'lganidek, ularning ziddi perlokutiv aktlar bo'ladi. Demak, illokutiv aktlar yordamida so'zlovchi biror faoliyatni amalga oshirsa, perlokutiv akt – aytilgan ifodaning tinglovchiga ko'rsatadigan ta'siridir. Bunda so'zlovchi tomonidan aytilgan ifodaning ma'nosini tushunish emas, balki bu tushunish natijasida tinglovchining holatidagi va harakatidagi o'zgarishlar nazarda tutiladi. Yoki so'zlovchi nutq odobi me'yorini buzganda, tinglovchining psixik holatidagi o'zgarish perlokutiv aktga misol bo'ladi.

Ko'rinadiki, nutqiy aktlar nutqiy janrlarni yuzaga keltirar ekan, nutqiy janrlar inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Sh.Safarov bu kabi masalalar to'g'risida fikr bildirib: «Hozirgi paytda tilshunoslikning insoniy-antropologik fan ekanligini inkor etishga hech kim jur'at eta olmasa kerak»[1,230], - degan xulosaga keladi. Haqiqatdan, til faqat insonlarga xos bo'lganligi uchun ham tilshunoslik insoniy-antropologik fandır. Olim kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismlari sifatida "so'zlovchi", "tinglovchi", "ijro etish" va "tushunish" bo'limlarini ajratadi[1,66]. Bu holatda bo'limlarning ikkitasi ("so'zlovchi", "tinglovchi") faoliyat bajaruvchisi, ikkitasi esa ("ijro etish" va "tushunish") faoliyatning o'zi. Demak, kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismlarini ikki faoliyatga (faoliyat bajaruvchisi va faoliyatning o'zi) ajratishimiz mumkin.

M.Hakimov nutqiy akt tushunchasi, unda so'zlovchining kommunikativ niyati aks etishini aytib, uning nutqiy aktlarning ko'rinishlari sifatida nutqda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. So'zlovchining munosabati esa nutqiy aktlar vositasida shakllanadi [2,6]. Ko'rinadiki, shakllangan nutqiy aktlar nutqiy janr turlarini hosil qiladi.

Nutqiy aktlarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ulardan biri sotsiativ nutqiy aktlardir. Sotsiativ nutqiy aktlar deb, bir sotsial guruhga mansub bo'lgan so'zlovchining tinglovchiga qarata *tasdiqlash, iltimos, buyruq, minnatdorlik bildirish, kechirim so'rash, tabriklash* kabi faoliyatlarni bajarishiga aytiladi.

J.Linch "Pragmalingvistika" kitobida nutqiy aktlar guruhlarini sotsialingvistik ko'rsatkichlarga tayanib, ularni muloqot jarayonida "xushmuomalalikni ta'minlovchi va shu muhitni o'rnatish maqsadi bilan qay yo'sinda bog'liqligiga" nisbatan quyidagicha guruhlaydi:

1) komaititiv (illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga mos kelmaydi, masalan, *buyruq, savol, talab, iltimos* kabi nutqiy harakatlar);

2) konvivial (illokutiv va ijtimoiy maqsad o'zaro mos kelsa, masalan, *taklif, qutlov, tabrik, tashakkur izhor qilinishi*);

3) kollaborativ (illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga befarq; massalan, *tasdiq, xabar berish, e'lon qilish, ma'lumot berish* kabilar);

4) konfliktiv (illokutiv va ijtimoiy maqsadlar o'zaro qarama-qarshi, masalan, *tahdid, ayblov, so'kish, qarq'ish* harakatlari).


J.Linchning fikricha, ijtimoiy maqsad yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etishdan iboratdir va bu maqsadni ta'minlovchi vosita xushmuomalalik kategoriyasidir.[1,134]

Sotsiativ nutqay aktlardan biri "kechirim" nutqiy aktidir. J.Linch ta'rifiga ko'ra, komaititiv nutqiy aktiga kiradi. *Kechirim* nutqiy akti turli tan olishni ifodalash, ya'ni o'z so'zining noto'g'ri ekanligini, noto'g'ri ish qilganligini yoki no'g'ri fikr bildirganini ifodalash yo'lidir.

*Kechirim* nutqiy akti ikki bo'limdan, ya'ni ikki faoliyatdan iborat:

- 1) kechirim so'rash faoliyati;
- 2) kechirish faoliyati.

So'zlovchi (gunohkor) kechirim so'rash faoliyatini bajaradi, tinglovchi (begunoh) esa kechirish faoliyatini. Bu faoliyatlarni "sabab" tushunchasi bir-biri bilan bog'laydi. Bu faoliyatlarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:



va... kinetik harakatlar ham ishlatiladi. Ular muloqotchilarning millatini, ijtimoiy guruhini oydinlashtirishi mumkin bo'lgan vositalar hisoblanadi.

Ushu maqolada biz faqat *kechirim so'rash nutqiy aktini* tahlilga tortishni ma'qul ko'rdik.

Kechirim so'rash aktining bajarilishi uchun, albatta, biror sabab bo'lishi kerak. Masalan,

- *Osiy bandalarmiz, xon xazratlari, xatolik o'tgan bo'lsa, avf eting, huzuringizga bosh egib keldim...*

*Xo'ja Yaxyo ko'ziga yosh oldi.*

(P.Qodirov. Yulduzli tunlar)

Ushbu misolda *kechirim nutqiy akti* sababni (osiy bandamiz) ifodalash bilan boshlangan, ya'ni har bir inson o'z hayotida bilib-bilmay xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Kechirim nutqiy akti **avf eting** birligi bilan ifodalanayapti,



**huzuringizga bosh egib keldim** birligi bilan esa ma'no kuchaytirilayapti. Buning tasdig'i sifatida *Xo'ja Yaxyo ko'ziga yosh olishi* ifodalangan.

Yuqoridagi misolda so'zlovchi o'zi uchun kechirim so'rayapti, lekin ba'zi kechirim nutqiy aktlarida so'zlovchi o'zga inson uchun kechirim so'rashi mumkin. Masalan,

- *Yoshda, - dedi yupatib, - Kichikdan xato, kattadan uzr, birodar. Xudo xayringni bersin, **kechiroqol endi.***

(O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi)

Bu misolda ham kechirim nutqiy akti sababni (yoshda) ko'rsatishdan boshlangan. So'zlovchi o'z fikrini tasdiqlash maqsadida "*Kichikdan xato, kattadan uzr*" maqolini keltirgan, umuman, yoshi kattalar o'z nutqida munosabatni yumshatishga harakat qiladi, fikrini tasdiqlash maqsadida maqollarni ko'p ishlatadi. **Kechiroqol endi** birikmasidagi *-qol (-oqol)* qo'shimchasining ishlatilishi ham kechirim nutqiy akti ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qilayapti, *iltimos* ma'nosini ifodalayapti. Solishtiring: *tushunaqol, oberaqol, turaqol, yotaqol, tugataqol* kabi. *Iltimos* ma'nosi ko'pincha kechirim nutqiy aktida ishtirok etadi. Masalan,

*Kimsanim, jon bolam, **kechir**, gunohkor onangni!* (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasida)

Kechirim nutqiy aktida *iltimos* ma'nosidan boshqa ma'nolar ham qo'shimcha ifodalanishi mumkin. Masalan,

*Onahning **gunohidan ot**, Kimsan!* (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasida)

Bu nutqiy aktida kechirim ma'nosidan tashqari yoshi katta odam tomonidan berilgan *buyruq* ma'nosi ham ifodalanayapti.

*Men buning hammasini allaqachon ko'nglimdan otkazganmen, mulla tog'a... Faqat men u qizning oldida **o'z gunohimni yuvmoqchiman**, xolos.*

(P.Qodirov. Yulduzli tunlar)

Ushbu nutqiy aktda *kechirim* ma'nosi bilan birga *istak* ma'nosi ham ifodalanayapti.

Kechirim nutqiy aktida sabab ba'zan aktning oxirida ham berilishi mumkin. Masalan,

*Eshik og'a ikki bukilib ta'zim qilar ekan, yuzi tund ko'rindi:*

- *Qanday xabar, bek?*

- *Hazratim, **qulingizning bir qoshiq qonidan o'ting...***

*Demak, Isfara ham yov qo'lida.*

(P.Qodirov. Yulduzli tunlar)

Ushbu misolda kechirim nutqiy akti birligi ***bir qoshiq qonidan o'ting***, sababi esa yomon xabar olib kelgani. U qanday yomon xabar ekanligi nutqiy aktning oxirida berilgan.

- ***Bir qoshiq qonimdan keching, amirzodam! ..***

*Bobur sovuq xabarlar izg'irininini oldindan sezganday eti uvushdi.*

(P.Qodirov. Yulduzli tunlar)

Matnda berilgan kechirimli murojaatning o'zidan sovuq xabar kelganligi bilinayapti.

Kechirim nutqiy aktlarda ba'zan bir subyektga emas, balki ko'pchilikka qarata aytilishi mumkin:

**Kechiring**, biz noraso avlod,  
 Qo'limizdan sizni olqishlab,  
 "Kelmadi"ni aytmog keladi, xolos.

(Nurmuhammad Aziz)

Ma'lumki, dunyodagi hamma narsalar bir-biri bilan bo'g'liq. Bu bog'liqlik muloqot olamini tashkil qiladi, muloqot olamining markazida esa inson turadi. Inson qanday vaziyatda kim yoki nima bilan muloqatga kirishishiga qarab uch xil muloqot turi mavjud:

1. Real hamsuhbat (asl subyekt) bilan muloqot.
2. Illyuzor hamsuhbat (subobyektlashgan obyekt) bilan muloqot.
3. Xayoliy hamsuhbat (badiiy personaj-kvazisubjekt) bilan muloqot.

Yuqoridagi tasnifdan ko'rinadiki, sotsiativ nutqiy aktning bir turi bo'lgan *kechirim* nutqiy aktining ham yuqoridagi turlari mavjud.

Olimlar *illyuzor muloqotning* quyidagicha turlari borligini ko'rsatishadi:

1. Hayvonot olami bilan muloqot.
2. Narsalar bilan muloqot.

Masalan,

Garchi zug'un qilganlarni yoqtirmadim,  
 She'r yozdimu bo'lak ishni qotirmadim.

Bir eslasam eziladi bag'ri dilim,

Ona tilim, **kechir meni**, ona tilim.

(Muhammad Yusuf)

Bu misolda *illyuzor* muloqotga oid *kechirim* nutqiy janri ifodalangan. Shoir ona tili uchun bag'ri dili ezilishini aytib, zug'um qilganlarga qarshilik qilolmagani uchun ona tilidan kechirim so'rayapti.

Yoki

Ko'kda tog' tomonga uchdi bir yulduz,  
 Sodda xayollarim uzundan uzun.

O'shga uzr aytib cho'kkanimcha tiz,  
 Ag'anab yotaman bog'larda mahzun.

(Iqbol Mirzo)

Yuqoridagi parcha Iqbol Mirzoning Shavkat Rahmon xotirasiga atab yozilgan "O'y" nomli she'ridan olindi. Shoir Shavkat Rahmon bilan bog'liq o'y-xayollari, kechinmalarini tasvirlab, u tug'ilgan O'sh shahridan uzr so'rash epizodini ko'rishimiz mumkin.

Kechirim nutqiy aktining reallashida *echirmoq // kechir // kechiraqol // kechirim so'rab qolmoq // kechirim so'romoq // kechirasiz, uzr // uzr*

*so'ramoq, afv etmoq // afv so'ramoq // afv tilamoq, gunohidan o'tmoq // gunohini yuvmoq, bir qoshiq qondan kechmoq // bir qoshiq qondan o'tmoq, tavba qilmoq, rahm tilamoq//rahm qilmoq, mag'firat so'ramoq//mag'firat etmoq, tavba-tazarru qilmoq, astag'firullo kabi til birliklari ishlatiladi.*

Xulosa qilib aytganda, sotsiativ nutqiy aktlarning tahlili ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Bunday tahlillar so'zlovchining nutqiy aktlarda o'z fikrini, maqsadini ifodalashda til birliklarining imkoniyatlarini ochib beradi.

#### Adabiyotlar

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Т., «ЎМЭ» Давлат илмий нашриёти, 2008.
2. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013.

INNOVATIVE  
WORLD



## **70-80-YILLAR SHE'RIYATIDA "SAN'AT" MAVZUSIGA MUROJAAT (XURSHID DAVRON SHE'RIYATI MISOLIDA)**

**Maxmudov Sardorbek**

**Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada "san'at" mavzusining 70-80-yillar o'zbek she'riyatidagi aksi tahlilga tortiladi. Tahlil obyekti sifatida Xurshid Davron ijodidan misollar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Xurshid Davron, she'riyat, adabiyot, san'at, lirik kechinma, obraz, sintezlashuv jarayoni.

**Аннотация:** В статье анализируется отражение темы «искусство» в узбекской поэзии 70–80-х годов. В качестве объекта анализа приведены примеры из творчества Хуршида Даврона.

**Ключевые слова:** Хуршид Даврон, поэзия, литература, искусство, лирический опыт, образ, процесс синтеза.

**Annotation:** The article analyzes the reflection of the theme "art" in Uzbek poetry of the 70-80s. Examples from the works of Khurshid Davron are given as an object of analysis.

**Key words:** Khurshid Davron, poetry, literature, art, lyrical experience, image, synthesis process.

Tildagi har bir so'zning cheklanmagan darajada poetik imkoniyati mavjud. Faqat bu yashirin imkoniyatni ijodkor talanti, mahorati yuzaga chiqaradi. Turli avlodga mansub shoirlar she'riyati o'zaro taqqoslansa, har bir davrga xos faol poetik so'z, obrazli ifodalarni uchratamiz. Maqolada Xurshid Davron ijodida yashirin maqsadlar bilan san'at mavzusiga murojaat etilgan she'rlar tahlil qilinadi.

70-80-yillar she'riyatida san'at mavzusi keng ko'lamda ommalashdi. She'riyatda ommalashgan "yangi" mavzuning ortida turli xil his-kechinmalar, qarashlar, tushuncha va g'oyalar dunyoga keldi. Bu haqida D. Quronov shunday yozadi: "XX asr o'zbek she'riyati personajli lirikaning ko'plab go'zal namunalarini berdi. Unda lirik kechinma egasi sifatida goh tarixiy shaxs, goh esa zamondosh inson; goh xayoliy bir mavjudot, gohi esa kunda-kun ora ko'rib yurganimiz biror narsa yo hodisa, ba'zan hatto ruh... xullas, lirik personajlar galereyasi g'oyat kengki, shu masalaning o'ziyoq ko'lamli tadqiqodlarga manba bo'la oladi." [1, 202]

San'at mavzusining ommalashuvi va ko'laming kengligini shu davrda ijod qilgan ijodkorlar asarlarini ko'rib, tahlil qilish jarayonida san'at mavzusida yozilgan she'rlarni quyidagi tematik guruhlariga ajratish orqali ko'rishimiz mumkin:

- 1) san'atkor qismatining badiiy talqini haqidagi she'rlar;
- 2) san'at mohiyati, vazifalari haqidagi she'rlar;

- 3) san'at asari haqidagi she'rlar  
 4) san'at asarlaridagi obrazlar haqidagi she'rlar.

Poetik janr va shakllardagi izlanishlar qanchalik ko'p bo'lsa, badiiy-estetik ma'noni ifodalash usullari, yo'llari shunchalik ko'pligini ko'rsatadi. Bu izlanishlar ortida, albatta, boshqa san'at sohalari bilan aloqa (sintezlashuvi), jamiyatdagi ijtimoiylashuvning kuchayishi she'riyatda san'at mavzusining keng ko'lamda qalamga olinishiga yo'l ochgan asosiy omillardan biri deb bilamiz. San'at sohasining o'zaro sintezlashuvi san'at sohasining yanada noziklashuviga, uning shu kungacha ko'rilmagan qirralarini ko'rishga imkon beradi. She'riyatning rassomchilik bilan teatr bilan va h.k. sohalar bilan sintezlashuvidan yaralgan go'zal she'rlarning san'at mavzusida yozilishi buning isboti bo'ladi. Masalan, Xurshid Davronning "San'at" nomli she'rini olsak, ushbu she'rida she'riyatda san'at mavzusini yozish bilan birga rassomchilik bilan sintezlashuv hodisasini ham ko'rishimiz mumkin:

Xona sovuq. Xontaxta uzra  
 Bo'm-bo'sh shisha. Unda oy aksi  
 Va burchakda turibdi muzlab  
 Oq bo'zdagi g'amgin qiz rasmi.

She'rning birinchi misrasidanoq kitobxon ko'z oldida sovuq xonaning qaysidir qismida xontaxta (kitobxon o'z tasvvuriga ko'ra joylashtiradi), uning ustida ichilib bo'shagan shishaga tushayotgan oy aksi yaltiraydi. Shoir shu yerda "tomoshabin"larning nigohini burchakda muzlab turgan (ya'ni xona juda sovuq) oq bo'zga chizilgan g'amgin qiz rasmiga qaratadi. Kitobxon tasavvurida nogahon chizilayotgan suratni g'amga chayilgan bo'yoqlarda chizilgandagidek hisni tuyadi.

Derazada muzdan qatqaloq,  
 Rassom yig'lar, ko'zlari xira.  
 Uni qiynar olis xotira –  
 Mo'yqalamda yashagan titroq.

Yangi banddan shoir "tomoshabin" nigohini xonaning boshqa qismiga sovuqdan derazada muzlab qolgan qatqaloqqa qaratadi va u yerda "tomoshabin" yig'lab ko'zlari xira tortgan, chuqur qayg'u va o'ylar girdobidagi rassomni ko'radi, butun umrini, hislari-yu, tug'yonlarini mo'yqalam bilan bo'lishganini his qiladi.

Taqdir kechar shunday hamisha –  
 Xona sovuq, qotib qolgudek,  
 Qotgan nonu bo'shagan shisha  
 Va dunyoga kelgan mangulik [2, 9].

She'rning yuqoridagi ikki bandida obyektivlashtirilgan tasvir ustuvor, lirik subyektini esa ko'rmadik. Uchinchi bandga kelib esa lirik subyekt ichki kechinmalarini ochiq ifodalaydi. Shu yerda kitobxon uni qiynayotgan olis xotiralar nima ekanligini angelaydi. O'limidan so'ng sud qilingan, millati uchun

kurashib horlig-u faqirlik, tuxmat-u sotqinliklardan aziyat chekkan ma'rifatchilarimiz, umri qamoqlarda chirigan shoir-u ijodkorlarimizni eslaydi. Ushbu she'rda rangtasvir va she'riyatning sintezi yaqqol ko'rinadi. Ammo bu yerdagi san'at mavzusi va obyektiv tasvir bir vosita xolos. Lirik subyekt uchinchi badda o'z xulosasini aytadi, bu tasvir ortidagi uni qiynayotgan asosiy og'riq qatag'onlik yillaridan beri davom etib kelayotgan zo'rlik edi, nazarimizda. She'r 1974- yili yozilgan. Ijodkorlarga endigina erkinlikning jonsiz epkinlari yela boshlagan palla edi. Ammo shoir chin erkinlik istaydi. Bir rassom qismatida boshqa san'at vakillarining qay qismat yo'lida kelganligi va qay qismat yo'lidan borayotganini chuqur dard bilan ifodalaydi. She'rning mukammaligida ijodkor shaxsning badiiy universalligini ko'rishimiz mumkin.

A. Blok yozuvchini rasmdan saboq olishga undaydi, yozuvchi uchun rassomning psixologiyasi va dunyoqarashini, uning dunyoni idrok etishini juda muhim deb biladi, garchi fikrlar, his-tuyg'ular va taassurotlarni yetkazish vositalari har xil bo'lsa ham [3]. X. Davron yoshligidan tasviriy san'at bilan shug'ullanadi. Uning teran nigohida tabiatni, borliqni musavvirona ko'ra olish qobilyati yuksak. Ayni shuning uchun ham rangtasvir va she'riyatning go'zal sintezini uning she'rlarida juda ko'p ko'ramiz. Ushbu ikki san'atning ortiga ulkan ijtmoy dardni mahorat bilan yuklaganini yuqorida guvohi bo'ldik. Shoir rassomchilikda anchagina qobilyatli edi va keyinchalik ham bu san'at bilan, rassomlar bilan yaqinlikni yo'qotmadi. Ijodkor avvalo jamiyat bilan hamnafas yashaydi. Biz asos qilib olgan ijodkorlarimiz she'rlarida ham xalqning dardi, quvonchi, his-kechinmalari o'z chizgilarini topgan. Ijodkor san'at mavzusiga o'zidan oldingi salafining dard- qayg'ularini, kechinmalarini his qilgan holda murojaat qiladi. Bu esa san'at mavzusining ko'lamining kengayishiga yana bir omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu omilnida yuqorida misol qilgan she'rimizda ham ko'rdik.

Xurshid Davron san'atkor qismati mavzusidagi she'rlaridan "Migel Ernandes so'zi" sarlavhali she'rida Ispan shoiri Migel Ernandesning o'limidagi holatiga (uning ko'zlari ochiq holatda o'ladi) ulkan ijtimoiy dardni yuklaydi. Shoirning e'tiqodicha, shoirlik bekordir, agar "Kulfat panjasida qolgan insonga Qalbini bahsh eta olmasa", chunki uning uchun shoirlik avvalo insonparvarlikdir. "Qanday yumay, kipriklarim qilichga aylansa, Vatan" deb boshlanuvchi she'rida "Qanday yumay?" degan savolni qayta-qayta ta'kidlaydi va bu savolning ortida nega yuma olmayotganligining sabablarini keltirib o'tadi. "Qanday yumay, do'stlarimni ko'rib tursam, Ko'rib tursam ular tutgan qurollarni" deya shoirning yuragida og'riqqa aylangan dadlarni birma-bir qalamga oladi. Bu dardlar yuqoridan pastga qarab gradatsiya orqali kuchayib boradi va davomida:

Ona xalqim sen ochlikdan, qullikdan,  
 Muhabbatdan, nafrattan to'kkan ko'z  
 Yoshlaringni bir o'zim to'ksam,



Oqib tushib qorachig'im, yumilarmi ko'zlarim?  
deya xitob qiladi. Shoir ko'zlarni nega yuma olmayotganini misrama-misra teranroq anglab boramiz-u, bu ijtimoiy chirkinlik, erkinlikning oyoqosti bo'lishi aynan bizda ham bo'lgandek, Migel Ernandesniku ko'zlari ochiqligini ko'rishibdi, ruhoniy chaqa qo'yib ko'zlarini yumibdi deymiz. Ammo qatag'onlik qurbonlari bo'lgan millatimizning ziyolilari-yu ijodkorlarining hatto o'liklari kafan ko'rmay ko'milmaganmidi; qabrlari uzoq o'lkalarda, muzliklarda, jarliklarda qolib ketmaganmidi, degan savollar bo'g'zingni achchiq bir tug'yon bo'lib bo'g'adi. Shoir ham shu dardlarni his etgan, albatta. Ammo buni ochiq ayta olmas edi. Shuning uchun ham o'zga bir yurt shoiri taqdirida buni akslantiradi. Shoir shu dardlarni his etib misralarda davom etadi:

“Men hech qachon qo'shiq aytmaganman motam, azada.

Biroq bugun bir xalq azasida kuylagim kelar,

Qo'shiq aytgim kelar o'lmas xalq haqida.

She'rlarimni yoqing, axir men bugun

Haqiqiy she'rlar yozishga qudratim yetganda

Qanday yumay ko'zlarimni,

Qanday yumay?!”

Misralarni o'qiyimiz, ko'z oldimizda ispan shoiri emas, balki xalqni uyg'otish ilinjida o'limini bo'yniga olgan Cho'lponlar-u, Qodiriylarning nigohlarini ko'rgandek bo'lamiz, go'yo. Ushbu misralarda shoir xalq azasi va o'lmas xalq so'zlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Aynan yuqorida aytgan ziyolilarning o'limi xalq azasi emasmidi? katta yo'qotish emasmidi? Ammo bu yo'qotishlar bilan xalqning ruhi sinmadi.

70- 80- yillar she'riyatida san'atkor qismati mavzusini yoritish orqali faqat san'atkor qismatini emas, balki inson erki, vatanga muhabbat, inson e'tiqodi kabi masalalarn ham bu mavzu orqali yoritib beriladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – T.: Akademnashr, 2013.
2. Davron X. Bolalikning ovozi. – T.: Adabiyot va san'at, 1986.
3. Золотарева Л.Р. Взаимодействие изобразительного искусства и литературы. Вестник КарГУ. – Караганда, 2010.

## Sharx nutqiy janrining siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati

**Ismoilova Odinaxon A'zamjon qizi**  
**ADU tayanch doktoranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqiy janr tizimida sharx janrining mavqeyi, paydo bo'lish tarixi hamda siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatiga oid ayrim mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq janrlari, sharx ilmi, kommunikativlik, ommaviy axborot vositalari, online muloqot.

Nutqiy janrlar ichida sharx kelib chiqishi jihatidan qadimiyligi bilan ajralib turadi. V.V. Dementyev janrni tadqiq qilishda ikki yo'nalishning birligi asosida nutq janri va tilining umumiy kommunikativ tabiati (vazifasi), janrlar ijtimoiy o'zaro ta'sirni rasmiylashtirish vositasi degan fikrga asoslangan holda ularning sintezini taklif qiladi. Bu bosqichda nutq janrlari nazariyasida sintetik yo'nalishga ehtiyoj bor, bu yerda janrning dialogik va lingvistik jihatlari ko'rib chiqiladi<sup>1</sup>. Tadqiqot asosan nutqiy janrlar haqidagina emas, balki aynan sharx janrining lisoniy tadqiqi bo'yicha o'tkazilishi ham tasodif emas.

Zohidov R.T o'z dissertatsiyasida quyidagicha fikrlaydi: Har qanday atamaning yasashida so'zning lug'aviy ma'nolari negiz vazifasini o'taydi. Shu negiz atrofida muayyan tushuncha barqarorlashadi va yangi nom bilan atala boshlaydi. Jumladan, Sharh ilmi atamasiga ta'rif berishdan oldin "sharh" so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratish lozim. Arabcha "sharh" so'zi شَرَحَ fe'lidan yasalgan bo'lib, mashhur lug'atlarda — ochmoq; bayon qilmoq, tushuntirmoq, yoritmoq, izohlamoq; bo'laklab kesmoq ma'nolarida izohlangan [تاج العروس .لسان العرب] Kelinning toji") lug'atida "sharh" so'zining kengaytirmoq ma'nosi ham borligi quyidagi misol yordamida qalbini uning Oллоh — «...الخير لقبول صدره هلا شرح» — izohlangan yaxshilikni qabul qilishi uchun ochdi., ya'ni kengaytirdi"<sup>2</sup>. Mazkur atamaga muqobil ravishda lotincha commentarium - biror matn yoki kitobni tushuntirib, izohlab berish degan mazmundagi kommentariy iborasi ham ishlatiladi. Hakim Termiziy qalbning ochilishi (sharx) haqida shunday deydi, Bu qalbning kengayishi, Allohning nuri va karomatlar bilan ravshan tortishidir. Uning belgisi Buyuk Allohdan kelgan barcha ta'limotlarda, Haqning har qanday imtihonlariga sabr etishda sobit bo'lishdir. Uning ziddi qalb ko'rliigi va siqilishidir<sup>3</sup>.

<sup>1</sup>Nizamiddinova Nigora Nizamiddinova DIALOGIK O'ZARO TA'SIRDA MATN VA NUTQ. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS .2-November\_2022 115.

<sup>2</sup> [1645 تاج العروس].

<sup>3</sup> Қаранг: Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Али Хаким Термизий. Маърифатул асрор. (Сирлар маърифати). Таржимон: Абдулхамид Муҳаммад Турсунов. Т.: "Мовароуннахр" 2017. Б.23

Demak, mazkur ma'nolarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, sharx ilmining reallashuvi abstrakt zaminda kechib atama sifatida bu birikma ma'noning yopiq tomonlarini ochish, qorong'i jihatlarini yoritish, qisqa ifodalarning ma'nolarini kengaytirib, yoyib izohlash kabi maqsadlar uchun xizmat qiladi<sup>4</sup>.

Ko'pchilik tadqiqotchilarni sharxning publitsistika va nutqiy janrlar tizimidagi mavqeyi va o'zaro farqi qiziqtiradi. Nazariyaga qaralsa, oliy ta'lim muassalarining "Amaliy jurnalistika asoslari" kursidagi darslarda bu haqda quyidagicha yoziladi: "Izoh publitsistikaning ham usuli, ham janri bo'lishi mumkin. Usul sifatida u materialning bir qismi sifatida kiritilishi mumkin. Alohida janr sifatida, bu har qanday muhim voqealarni tushuntirib beradigan va "izohlaydigan" butun nashrdir.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralsa, izoh janr sifatida biror narsani sharhlovchi butun bir matndir, bu alohida iqtibos emas. Ma'lumki matn biror voqelik haqida tasavvur beradigan bir nechta sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy. Shuningdek, nutqiy janrlardan biri sanalgan sharx ham voqea-hodisa yoki biror mavzuga oid matnni sharxlaydi, izohlaydi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarni sharxning publitsistika va nutqiy janrlar tizimidagi mavqeyi va o'zaro farqi qiziqtiradi. Nazariyaga qaralsa, oliy ta'lim muassalarining "Amaliy jurnalistika asoslari" kursidagi darslarda bu haqda quyidagicha yoziladi: "Izoh publitsistikaning ham usuli, ham janri bo'lishi mumkin. Usul sifatida u materialning bir qismi sifatida kiritilishi mumkin. Alohida janr sifatida, bu har qanday muhim voqealarni tushuntirib beradigan va "izohlaydigan" butun nashrdir.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralsa, izoh janr sifatida biror narsani sharhlovchi butun bir matndir, bu alohida iqtibos emas. Ma'lumki matn biror voqelik haqida tasavvur beradigan bir nechta sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy. Shuningdek, nutqiy janrlardan biri sanalgan sharx ham voqea-hodisa yoki biror mavzuga oid matnni sharxlaydi, izohlaydi. Ko'rinib turibdiki, sharh hayotdagi biror fakt, faktlar yig'indisi, voqea, hodisa yoki biror hujjat, matn, kitob yoki boshqa biror narsani izohlash, tushuntirib berish maqsadida yoziladigan matn, materialdir. Sharh keng ma'noda ayrim ilmiy asarlarni, yoki muqaddas kitoblarni, qonunlar va boshqa rasmiy hujjatlarni izohlashda qo'llaniladi. Shunga ko'ra sharhlar mavzuviy jihatdan ilmiy, siyosiy va ommabop kabi turlarga bo'linadi. Masalan, Qur'oni karim sharhlari, mumtoz she'riy adabiyot asarlarining nasriy sharhi yoki biror ilmiy adabiyotlar sharxlari ilmiy turga, qonunlar, huquq va kodekslar sharhlari, yangi qabul qilingan farmon yoki boshqa biror rasmiy hujjat sharhlari va shu kabilar esa sharxning siyosiy turiga mansubdir. Sharx ilmining ildizlari, uning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritish ekanmiz, bu jarayonning

1. Zohidov R.T "Sabotul o'jizin" asari matni, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari. – filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc)diss.Toshkent.-2018. 68-bet.



yuksalishida O'rta Osiyolik mutaffakkirlarning xizmati beqiyosdir. Zero Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta'kidlaganlaridek, "Bugungi dunyo ilmiy jamoatchiligi e'tirof etayotgan asosiy ijtimoiy voqeliklardan biri ilm-fan va islom dini tamadduniga o'zlarining betakror hissasini qo'shgan Markaziy Osiyolik olimu mutafakkirlarning ma'naviy merosidir. "Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz avliyolar yetishib chiqqan"<sup>5</sup>. Shulardan biri buyuk mutaffakkir va qomusiy olim Abu Nasr Forobiydir. Ma'lumki Farobiy yunon falsafasini chuqur bilgan va unga sharxlar bitib, ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Umuman olganda, u yaratgan nodir asarlar ilmiy sharxga yaqqol misol bo'la oladi. Jumayeva Nilufar Ahmatovna Sharq allomalarining ilmiy merosi deb nomlangan o'quv qo'llanmasida quyidagi fikrlar ilgari suriladi "Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari ("Metafizika", "Etika", "Ritorika", "Sofistika" va b.) ni betafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko'rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiy sharhlari O'rta va Yaqin Sharq ilg'or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g'oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Abu Ali ibn Sino Forobiy sharhlari ("Metafizika" – "Moba'diy tabiat") ni o'qib, Aristotel asarlarini tushunganligini alohida ta'kidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqningina emas, o'rta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o'ynadi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqich Forobiya o'ziga xos maktab xizmatini o'tagan va yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan<sup>6</sup>.

Shayx Alijon qori Fayzulloh Mahdum o'g'li tomonida yozilgan "Qur'oni Karim shafaoti deb nomlangan sharh mavjud Ushbu kitobda o'n uchta hadis sharhi keltirilgan bo'lib, har bir mavzu Qur'oni Karim, qorilar haqidagi hadislar bilan boshlanadi. Kitobda faqatgina hadis sharhlari bilan emas, balki solih zotlarning qur'onga bo'lgan muhabbatlari, hofizi qur'onlarning Qur'onga oid hayotiy hikoyalari bilan ham tanishasiz. Mutolaa davomida Hofizi Qur'onga bu dunyoni o'zidayoq beriladigan mukofotlarga guvoh bo'lasiz. Qur'onga bo'lgan muhabbatingiz yanada ziyoda bo'ladi Inshaalloh.Kitobdan iqtibos keltirishimga ijozat bergaysiz... "Qur'oni Karimni o'qish va Uni o'qitish asosiy g'oya emas. Asosiy g'oya-

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2017-yil 23-dekabr.

<sup>6</sup> Jumayeva Nilufar Ahmatovna Sharq allomalarining ilmiy merosi. O'quv qo'llanma "Durdon" nashriyoti Buxoro – 2022. B-72.

Qur'oni Karimni tushunib, Unga amal qilish. Buning uchun avvalo Qur'oni Karimni to'g'ri o'qishni o'rganishimiz shart. Shunda uni to'g'ri tushunamiz”

Sharx nafaqat qonun, farmon yoki rasmiy hujjatning, balki qonunosti hujjatlarining ham mohiyatini ochib berishi mumkin. Bu sohada mamlakatimiz siyosiy hayotida ham tegishli loyihalar amalga oshirilishni boshlagan. Bu haqida Norma axborot-huquqiy portalida Lola Abduazimova tomonidan qonunosti hujjatlariga rasmiy sharx berish tartibi joriy etilishi haqidagi maqolasida quyidagi fikrlar ilgari suriladi: “So'nggi yillarda huquqni qo'llash amaliyotida kolliziya, tafovutlar, bo'shliqlar va korrupsiyaviy omillar kuzatildi. Shu munosabat bilan Adliya vazirligi tomonidan qonunosti hujjatlariga rasmiy sharh berish tartibini belgilashni nazarda tutadigan Prezident qarori loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha lingvistik, tizimli, mantiqiy va tarixiy usullardan foydalangan holda rasmiy sharhlash tushunchasi va turlarini, shuningdek vakolatli organlarning harakatlari tartibini, arizani ko'rib chiqish muddatlari, rasmiy sharh berish va tegishli hujjat loyihasini ishlab chiqish zarurati to'g'risida qaror qabul qilish tartibini belgilaydi.<sup>7</sup> Ilmiy adabiyotlarda siyosiy sharxning dastlabki ko'rinishi sifatida tushuntirish xati keltiriladi, chunki ma'muriy sohada yoki huquqni muhofaza qilish borasida har qanday voqea va hodisa sabablari (ish joyida yo'qligi, kechikish, mehnat vazifalarini buzish, ish beruvchining mulkiga zarar yetkazish va boshqalar) bayon etilgan “tushuntirish xatlari” ham sharhning o'ziga xos na'munasidir. Tadqiqotlarda yozilishicha, bugungi kunda, jamiyat hayotida siyosiy kommunikatsiyaning roli ortib borayotgani va undan turli maqsadlarda, shu jumladan ommaviy ongga manipulyatsiya ta'sir qilish vositasi sifatida foydalanish amaliyoti keng tarqalmoqda. Siyosiy sharhlar nutqini o'rganish obyektiv zarur ko'rinadi, chunki zamonaviy odamlar va butun jamiyat uchun olingan ma'lumotlarning haqiqat va yolg'onligini ajrata olish, manipulyatsion texnologiyalarga qarshi turish uchun noto'g'ri ma'lumotni tan olish muhimdir. Siyosiy sharhlash nutqi - siyosiy kuchlarning uyg'unligini, davlatning tashqi va ichki siyosatini rivojlantirish tendentsiyalarini aks ettiruvchi jamiyat siyosiy hayotining murakkab tashkil etilgan hodisasi hisoblanadi.

Gollandiyalik tilshunos T.Van Deyk ham tor shaklda siyosiy nutqning shunday ta'rifini beradi: “Siyosiy nutq –ma'lum bir ijtimoiy soha, siyosat sohasi bilan chegaralangan janrlarning ma'lum sinfidir”

Siyosiy tilning xarakterli belgilari semantik noaniqlik va fantomizmdir (siyosiy tilning ko'pgina belgilari real denotatsiyaga ega emas). Ongsizlikka, ezoterizmga tayanish (ko'plab siyosiy bayonotlarning asl ma'nosi faqat bir necha kishiga tushunarli), masofa va teatrallik. Janr jihatidan siyosiy sharh quyidagi bir qator mezonlarga asoslanadi: muloqot ishtirokchilarining

<sup>7</sup> <https://www.norma.uz/uz/nhh loyihalari/qonunosti hujjatlariga rasmiy sharh berish tartibi joriy qilinadi>

tabiati; aloqa kanalining o'ziga xos xususiyatlari; diskursiv strategiyalardan, lingvistik vositalardan foydalanilgan; referent siyosiy hodisa; vaqtinchalik, xronotop. Aloqa ishtirokchilari nuqtayi nazaridan siyosiy sharh xabar muallifining mavjudligi (siyosiy kuzatuvchi, sharhlovchi, tahlilchi, muxbir, intervyu beruvchi, esseist, sharhlovchi, sharhlovchi va boshqalar) va maqsadli auditoriyaning tabiati bilan belgilanadi. Sharhlovchining ixtiyorida ko'pincha bir necha soat bor. Muhim voqeani zudlik bilan sharhlash bilan bog'liq kerakli material va ko'nikmalarni yaxshi biladigan bilimdon jurnalistgina muvaffaqiyatli hal qila oladi. Shuning uchun sharhni tayyorlash odatda sharh mavzusiga oid mavzuga ixtisoslashgan kolonnalist yoki muxbir zimmasiga yuklanadi. Xabar muallifi mohiyatan taqdim etilayotgan ijtimoiy institut va maqsadli auditoriya o'rtasida kommunikativ vositachi hisoblanadi. Har qanday media tuzilmasi tizimli tashkilotga ega va ma'lum bir jamiyatga xos bo'lgan axborotni ishlab chiqarish va tarqatish jarayonini ijtimoiy tartibga solish normalariga bo'ysunadi. Shuning uchun muallif tomonidan yetkazilgan ma'lumotlar individual muallifning emas, balki ommaviy ishlab chiqarish natijasidir. Siyosiy sharhlar ma'lum aloqa kanallari orqali oqadi: Internet muhitida, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida. Har bir ommaviy axborot vositasi uzatilayotgan xabarga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ommaviy axborot vositalarining maxsus xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Siyosiy sharhda obyektning tahlil qilish muallifning nutq ishtirokchilariga qaratilgan bayonot turiga qarab o'zgarishi mumkin bo'lgan muayyan diskursiv strategiyalardan foydalanishini oldindan belgilab beradi. Siyosiy sharh muallifi ataylab muallifning pozitsiyasini aks ettiruvchi ijtimoiy hayot faktlariga asoslanadi va ularning ta'rifini tuzadi. Shunday qilib, siyosiy sharh bir qator janr shakllantiruvchi omillar asosida shakllanadi. Jurnalistika janrlari tizimida faktga sharhning mavjudligi tahliliy janrlarni sof axborot janrlaridan ajratib turuvchi mezon bo'lib, uning obyektining faktning o'zi hisoblanadi. Bunda sharh janr sifatida emas, balki janr strukturasi element sifatida ishlaydi. Siyosiy sharh potentsial ta'sir nuqtayi nazaridan siyosiy kommunikatsiyaning eng qiziqarli janrlaridan biridir. Shu bois siyosiy sharhlar nutqini ilmiy bilimlarning turli sohalarini, siyosiy tajriba va ijtimoiy amaliyotni birlashtirgan holda o'rganish dolzarb ko'rinadi.

Ommabop sharxlarga to'xtaladigan bo'lsak, sharhning mazkur turi jamiyat hayotida yuz bergan voqea va hodisani yoki biror ilmiy-ommabop materialni sharhlash, o'quvchiga tushuntirish va mohiyatini ochib berish uchun qo'llaniladi. Sharh o'zining janr xususiyati bilan maqola, hisobotga yaqin turadi, unda ham yuz bergan, bo'lib o'tgan voqea, hodisa izohlanadi va uning mohiyati ochib beriladi. Ammo u maqoladan farqli ravishda ma'lum fakt, voqea, hodisa yoki hujjatning o'ziningina sharhlash, izohlash bilan



cheklanadi. Hisobotdan farqi esa bo'lib o'tgan voqea, hodisalarning borishi, tafsilotini emas, faqat undan chiqadigan ma'no va mohiyatiningina ochib berishidir. Mazkur janr unda aks ettirilayotgan voqea va hodisalarga qarab tashqi va ichki sharhlarga bo'linadi. Tashqi sharhda xalqaro voqealar o'z aksini topsa, ichki sharhda mamlakat ichida yuz berayotgan voqea va hodisalar, rasmiy hujjatlar sharhlanadi. Xalqaro voqealarga doir sharh yozuvchi (tayyorlovchi)lar xalqaro sharhlovchilar, ichki mavzulardagi sharh yozuvchi (tayyorlovchi) lami esa iqtisodiy ilmiy va boshqa sohalarga doir sharhlovchilar deyiladi. Bu ko'pincha aholini ma'lum bir muammo haqida xabardor qilish va odamlarning adolat tuyg'usiga murojaat qilish orqali o'zgarishlarni amalga oshirish yoki rag'batlantirish g'oyasi bilan amalga oshiriladi. Ijtimoiy sharhni bosma shakldan tortib, kompyuterlashtirilgan muloqotgacha bo'lgan barcha aloqa shakllari orqali amalga oshirish mumkin. Mazkur kompyuterlashtirilgan muloqot orqali ifodalanuvchi sharx, xalq tilida komentariylar bugungi golballashuv jarayonida keng ommalashib bormoqda. Ular ham o'z navbatida mavzu jihatidan bir-biridan farqlanadi.

M.Madaminova "Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni" deb nomlangan dissertatsiyasida shuni alohida ta'kidlaydiki, elektron muloqot sohasida texnik vosita orqali uzatiladigan matn ko'rinishida bu yozma nutq, lekin til qurilishi va muloqot uslubi nuqtai nazaridan og'zaki nutq sifatida tavsiflab<sup>8</sup>, o'z fikrini Shmeleva T.Vning quyidagi qarashlari orqali dalillaydi: Tilshunoslar internet tarmog'ini nutq yaratish imkoniyatlarini kengaytirish va tilda yangiliklar yaratishning samarali asosi sifatida tan oladilar<sup>9</sup>.

Darhaqiqat, ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy voqea-hodisalarning ommaga namoyish etilishi nutq irod etishning yangi eshiklarini ochadi. Bu masalani chuqurroq anglash uchun, birgina taqdiqotimiz markazida bo'lgan sharx nutqiy janrini olaylik. Ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar turli Facebook, Instagram, Telegram kabi ijtimoiy tarmoq platformalarida baham ko'rilgan postlar, videolar yoki fotosuratlariga foydalanuvchilar yoki o'sha profil egasining obunachilari tomonidan qoldirilgan yozma javoblar yoki reaksiyalarga ishora qiladi. Ushbu sharhlar shaxslarning kontent bilan shug'ullanishi va onlayn hamjamiyadagi boshqalar bilan o'zaro muloqotda bo'lishi hamda erkin fikr almashishlari uchun yo'l beradi. Marketing nuqtayi nazaridan, sharhlar brend xabardorligini oshirish, mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish va faollikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sharhlarga javob berish orqali korxonalar mijozlarga xizmat ko'rsatishga sodiqligini ko'rsatishi va foydalanuvchilarni qiziqtirgan har qanday tashvish yoki savollarga javob berishi mumkin. Misol tariqasida

<sup>8</sup> Мадаминова М.С. Матн прагматик тавсифида синтактик бирликларнинг ўрни. Филол. фан. бўйича ф. док-ри (Phd) диссертацияси. – Андижон, 2022. – 89 б.

<sup>9</sup> Шмелева Т.В. Медиалингвистика как медийное речеведение // Медиатекст как полиинтенциональная система: сб. статей / отв. ред. Л.Р. Дускаева, Н.С. Цветова. СПб, 2012. – С. 68-71.

shuni olishimiz mumkinki, yaqinda “Korzinka” supermarketi yangi yil bayrami uchun aksiya e’lon qilib, Profiliga post joyladi. Biroq unga bildirilgan komentariyalardan birida, mijoz tomonidan e’tirozli fikr qoldirilgan. Supermarket mas’ullari esa bu fikrni e’tiborsiz qoldirmasdan, masalani ijobiy hal qildilar:

**Jamshid Ne’matov:**

-Man lekin kecha saber anorligidan 3 ta oldim, uchchallasigayam pul olishdi))

**Korzinka:**

-Jamshid Nematov Assalomu alaykum! Aksiya doirasida uchta Be fresh ichimligini sotib olganingizda, har bir donasi 6 327 so’mdan bo’ladi. Iltimos, ayting-chi, sizga ichimlikni qancha narxda hisoblab berishdi?

**Jamshid Ne’matov:**

-Korzinka 3 ta anorligidan oldim, 29000 buldi, y’ni pu’li tu’lik o’lin’di.

**Korzinka:**

-Jamshid Nematov Assalomu alaykum! Keltirilgan noqulaylik uchun uzr so’raymiz. Ma'lumotni aniqlashimiz uchun, iltimos, bizga siz bilan bog'lanish mumkin bo'lgan telefon raqamingizni yozib qoldirsangiz. Mas'ul xodimlarimiz siz bilan bog'lanishadi. (Ma'lumotlar aynan keltirildi).

Ushbu o'zaro ta'sir brendni insonparvarlashtirishga va supermarket va uning mijozlari o'rtasida ishonch va sodiqlik tuyg'usini yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, sharhlar foydalanuvchilarning sahifada o'tkazadigan vaqtini ko'paytirishi mumkin, bu esa qidiruv tizimlariga kontent qimmatli va dolzarb ekanligini ko'rsatishi mumkin. Suhbat ijobiy bo'lishini ta'minlash uchun biznes uchun ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlarni faol kuzatish va moderatsiya qilish muhimdir. Ma'noli e'tirozlarni rag'batlantirish va sharhlarga zudlik bilan javob berish orqali kompaniyalar o'zlarining onlayn mavjudligini kuchaytirish va maqsadli auditoriya bilan bog'lanish uchun foydalanuvchilarni jalb qilishning ushbu shaklidan foydalanishlari mumkin. Shu ma'noda ijtimoiy tarmoqdagi sharhlarning asosiy maqsadi kuzatuvchilarning muammo yoki voqea bo'yicha o'z pozitsiyalarini tushunishlari uchun yangi va chuqur istiqbollarni taklif qilishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumayeva Nilufar Ahmatovna Sharq allomalarining ilmiy merosi. O'quv qo'llanma “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2022.B-226.
2. Nizamiddinova Nigora Nizamiddinovna DIALOGIK O'ZARO TA'SIRDA MATN VA NUTQ .JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS .2- November\_2022 115.

3. Zohidov R.T. "Sabotul o'jizin" asari matni, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc)diss. Toshkent- 2018. Bet-256
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2017-yil 23-dekabr.
5. Абу Абдуллох Мухаммад ибн Али Хаким Термизий. Маърифатул асрор. (Сирлар маърифати). Таржимон: Абдулхамид Мухаммад Турсунов. Т.: "Мовароуннахр" 2017. Б. 23
6. Мадаминова М.С Матн прагматик тавсифида синтактик бирликларнинг ўрни. Филол. фан. бўйича ф. док-ри (Phd) диссертацияси. – Андижон, 2022. – 140 б.
7. Шмелева Т.В. Медиалингвистика как медийное речеведение // Медиатекст как полиинтенциональная система: сб. статей / отв. ред. Л.Р. Дускаева, Н.С. Цветова. СПб, 2012. – С. 68-71.
8. [تاج العروس 1645].
9. [https://www.norma.uz/uz/nhh\\_loyihalari/qonunosti\\_hujjatlariga\\_rasmiy\\_sharh\\_berish\\_tartibi\\_joriy\\_qilinadi](https://www.norma.uz/uz/nhh_loyihalari/qonunosti_hujjatlariga_rasmiy_sharh_berish_tartibi_joriy_qilinadi)

INNOVATIVE  
WORLD



**XALQ OG'ZAKI IJODIDA MAKTUBLAR  
THE LETTERS IN THE FOLKLORE  
ПИСМА В УСТНОМ НАРОДНОМ ТВОРЧЕСТВЕ**

**Murotova Ismigul Bobomirzayevna**  
 BuxDU ikkinchi bosqich magistranti  
**Murotova Ismigul Bobomirzayevna**  
 BukhDU second cycle graduate student  
**Муротова Исмигул Бобомирзаевна**  
 магистрант Бухду второй этап

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy adabiyotning muhim janrlaridan bo'lmish maktublarning xalq og'zaki ijodidagi o'рни va ahamiyati haqida atroflicha fikr yuritilgan. Maktublarning xalq og'zaki ijodidagi, jumladan, epik turga mansub bo'lgan dostonlar tarkibida qay tartibda, qanday badiiy kompozitsiyalardan foydalanilgani haqida so'z boradi.

**Annotation:** In this article it was widely given about the position and rde of the letters in folklore genze in literanture, and also, it was reflected the content of epic genze in folklore letters how to utilize from what kind of orders and compositions.

**Аннотация:** Данная статья относится к одному из важных жанров художественной литературы. В ней говарится и значении писма в фольклоре останавливается подровно в каком порядки исполъзуюся в составе былин и какие художественне композиции исполъзованы

**Kalit so'zlar:** maktub, xat, xalq og'zaki ijodi, mayna, doston, genesis, "Ravshan"

**Key words:** letter, missive, folklore, mynah, epic, genesis, Ravshan

**Ключевые слова:** письма, послание, фольклор, эпос, генезис, майна.

Maktub va xatlar qadimdan kishilar o'rtasidagi axborot almashinuvi vazifasini bajargan. Maktub qog'oz yoki boshqa vositalar (loy bo'lagi, pergament varog'i yoki qayin po'stlog'i)ga qo'lda yozilgan xabardir. XVII-XIX asrlar, asosan, yozma maktublar asri bo'lgan. O'qimishli kishilar muntazam ravishda xatlar qabul qilib, jo'natib turishgan.

Tarixda maktublar orqali muhim ahamiyatga ega bo'lgan xabarlar, jumladan, podshohlarning farmonlari, xalqaro munosabatlar, murojaatnomalar, kishilar o'rtasidagi dil izhorlari, axborotlar, muhim voqealar o'z egalariga yetkazilgan. Ushbu maktublarda badiiy til unsurlaridan mohirona foydalanilgan. Masalan miloddan avvalgi III asrda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Botir Tangriqutning Xitoy malikasiga yozgan maktublari va malikaning Tangriqutga yozgan javoblari fikrimizga dalildir<sup>10</sup>.

Maktubning ilk ko'rinishlari O'rta Osiyo tarixida yozuv paydo bo'lmasdan ancha ilgari mavjud bo'lib, fikrlar turli belgilar vositasida yetkazilgan. Yoki ramziy ma'no tashuvchi buyumlar orqali ham maqsadlar bayon qilingan. Bunga misol sifatida skiflar shohi Iskandarning Eron shohi Doroga yuborgan buyumlari – kamon o'qi, baqa, sichqon va qushdan iborat o'ziga xos "maktub"ini eslash kifoya<sup>11</sup>.

Maktubning ilk ildizlarini, asosan, xalq og'zaki ijodida ham ko'ramiz. Ayniqsa, epik turga mansub bo'lgan dostonlarda ularni ko'proq uchratish mumkin. Masalan, "Ravshan" dostonida maktubning o'ziga xos badiiy vazifasi bor. Ravshan bandi bo'lganda uni qutqarish uchun go'zal yori Zulxumor uning yurtiga maktub yozadi. Maktub quyidagi ko'rinishda: "Hasan mardning o'g'li, Xon Dallining joni-dili, oti bek Ravshan, Shirvon mamlakatiga, Qoraxon viloyatiga kelib bandi bo'ldi. Qirq kun muhlat qilib, zindonga soldi. Shu qirq kunning o'n to'qqiz kuni o'tkanda shu xat bo'ldi, namozshomda bitildi. Tong otmay, Chambilbelga, to'ramning eliga yetadi. Nomozi bomdod shu xabar bo'lsa, Ravshanning murabbiylari bo'lsa, kelsa, ayirib olsa, shu xat tekkandan so'ng yigirmanchi kunida Shirvon shahrining bozori, Bozorining o'rtasida dori, shu yerda Ravshanbekning osilib o'ladigan yeri. Agar Ravshanbekning Xesh-tabarlari, g'am-guzorlari, ichkuyarlari bor bo'lsa, kelib Ravshanbekning gavdasuyagini olib ketsin, deb xat bitildi"<sup>12</sup>.

Asarda maktubning o'rni beqiyos. Ravshanning omon qolishi aynan shu maktub tufaylidir. Shu o'rinda "O'tkan kunlar" romanidagi Kumushning jasoratini eslash o'rinli. Xullas, Zulxumor Maktubni bog'lab, issiqqa chidamli, sovuqqa bardoshli qilib tayyorlaydi va mayna qushi orqali manzilga jo'natadi. Maktub orqali biz Ravshanning islom diniga e'tiqod qilishini ham bilib olamiz. Dalil sifatida Zulxumor "Nomozi bomdod" degan jumlaning maktub tarkibida keltiradi. Dostondagi voqealarning ketma-ketligini ta'minlash aynan ushbu maktub asosida amalga oshirilgan. Sababi Shirvon eli Ravshanbekning elidan ancha uzoqda bir oy deganda yetib olish mumkin. Ammo Ravshanning osilishga yigirma kun qolgan edi. Demak, Zulxumorning xati masofani inobatga olingan holda doston tarkibiga kiritilgan. Maktub juda sodda va ravon tilda bitilgan. Xabarlarining ketma-ketligi uni o'qishda biron muammoga duch kelishga yo'l qo'ymaydi. Maktub muallifi uning haqiqiylikini ta'minlash, aynan, qahramonimiz Ravshan haqida gap ketayotganini bildirish uchun (chunki Ravshanlar ko'p bo'lishi mumkin), otasining, bobosining ismlarini ham keltiradi. Dostonda maktubni manzilga yetkazish mayna qushning zimmasida edi. Odatda, maktub va xatlarni tashish vazifasini kaptar qushlar amalga oshirgan. Dostondagi masofalarning uzoqligi hamda vaqtning kam qolganligi sababli mayna qushga ushbu vazifa yuklatilgan. Mayna qushning biologik tarifi bilan tanishadigan bo'lsak, ular issiq va sovuqqa o'ta chidamli va

<sup>11</sup>

<sup>12</sup> "Ravshan" dostoni 234-bet

qolgan qushlarga qaraganda juda tez uchganligi uchun dostonidan o'rin egallagan. Dostonda ham yozma ham og'zaki maktub bor. Sababi, Zulxumor maktubni mayna qushga bo'g'laganidan keyin ham, og'zaki tarzda unga murojaat qilib xabar aytadi. Masalan, Zulxumor beka mayna qushini osmonga uchirib: "Jonivor! To'ramning xon Dalli enasiga ikki pari enasiga salom degin"- deb zor-zor yig'lab maynasiga aytgan so'zi:

Oqar ko'zdan qonli yoshim  
 Cho'q savdoga qolgan boshim  
 Arzim eshit, mayna qushim  
 Bor, Chambilning xoni kelsin,  
 Yovmutning beklari kelsin  
 Xasim bo'lib tengi to'shim  
 So'zim eshit, mayna qushim  
 Bor, Chambilning xoni kelsin  
 Yovmitning erlari kelsin<sup>13</sup>.

Zulxumorning maynaga og'zaki qilgan fig'onlari dostonida o'n to'rt bandni tashkil qiladi. Ushbu og'zaki maktub orqali biz Zulxumorning Ravshanni qanchalar sevishini, Ravshanning zindondaligi unga juda qattiq ta'sir qilganligini bilib olamiz. Qolaversa, pok muhabbat har doim jasorat talab qilishiga amin bo'lamiz. Zulxumor shohning qizi bo'lsa ham hech narsadan tap tortmay ushbu maktublarni yozadi. Agar dostonga maktub kiritilmagan bo'lganda Ravshan qanday qilib qutqarilar edi? Albatta, biron chorasi topilardi, ammo maktub orqali olgan taassurotni o'quvchilar ololmas edi. E'tibor bersak, maktub aynan Ravshanning ota-onasiga yozilgan. Bu orqali inson har qanday vaziyatda birinchi bo'lib ota-onasidan yordam istashiga ishora bor. Insonning eng yaqin do'sti uning ota-onasi ekanligiga ushbu maktub yaqqol misoldir. Yangi o'zbek adabiyotida ham xuddi shunga o'xshash misol bor. Masalan "O'tkan kunlar" romanidagi Otabekni ham otasining maktubi qutqarib qoladi. Kumush ham xuddi Zulxumor kabi Otabekning joniga oro kiradi. Ko'rinadiki, asarlarda keltirilgan maktub va xatlar shunchaki kiritilmaydi. Ularning ma'lum bir o'ziga xos poetik vazifasi bo'ladi.

"Kuntug'mish" dostonida ham maktub shaklidagi unsurlar mavjud. Ammo ushbu maktubda yozma matndan emas, balki buyumlardan foydalanilgan. Masalan, Kuntug'mish va Xolbeka bir-birlarini tushida ko'rganidan keyin Xolbeka bitta sandiqqa o'zining rasmini chizdirib, sochining tolasidan qo'yib, Chiltonlar almashtirgan uzukni ham joylab sandiqni yaxshilab tanballab daryoga oqizib yuboradi<sup>14</sup>. Bu yerda maktubni yetkazish vazifasini suv bajarmoqda. Yuqorida aytganimizday, maktublar, asosan, xabar yetkazish vazifasini bajaradi. Bu dostonida aynan yozuv shaklida bo'lmasa ham, ammo buyumlar orqali xabar yetkazilgan. Shu maktubdan

<sup>13</sup> "Ravshan dostoni"

<sup>14</sup> "Kuntug'mish" dostoni



keyin Kuntug'mish Xolbekani izlab yo'lga tushadi. Nimaga Xolbeka yozma matndan foydalanmadi, degan haqli savol tug'iladi. Fikrimizcha, ular bir-birini tushida ko'rdi va bir-birining yuzini taniy oladilar. Shuning uchun Xolbeka matnli maktub yuborishni xohlamadi. Bu o'rinda maktub sevgining chinligiga dalildir. Xuddi shunday buyumlar orqali o'zining fikr mulohazlarini bildirish Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ham bor. Doro bilan Iskandar elchilar orqali muzokara olib borganida, Doro Iskandarni mot qilish uchun chavgon, go'y va kunjut berib yuboradi<sup>15</sup>. Bu o'rinda aytilmoqchi bo'lgan fikr bayoni shu buyumlarga yuklatilgan. Buni esa xalq og'zaki ijodining yozma adabiyotga ta'siri sifatida baholash mumkin.

O'zining syujet voqealariga boyligi bilan ajralib turadigan "Alpomish" dostonida ham qahramonlar o'rtasida maktub almashinish jarayonlari berilgan. Masalan, Barchin o'zining nochor ahvolini bayon etib, Hakimbekdan yordam so'rab, unga maktub yozadi va bu nomasini o'nta navkar orqali yuboradi. Xalq og'zaki ijodida maktubning turli xil ko'rinishlari mavjud. Yuqoridagi misollar bunga yaqqol dalildir. Ayniqsa, dostonlardagi maktublar ayollar tomonidan yozilganligi yanada diqqatga sazovor. Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha oldin yaratilganligini inobatga olib, yozma adabiyotdagi maktublarning genezisi og'zaki ijod namunalari borib taqaladi deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, badiiy asarga kiritilgan har qanday detal o'zining bajaradigan vazifasiga ega. Jumladan, maktublar ham asarni ochib beruvchi, syujetni harakatga keltiruvchi yoki yakunlovchi, qahramonning ichki kechinmalari, oshiqning yoriga qilgan dil izhorlarini kitobxonga yetkazishga xizmat qiladi. Asarlarda maktublar orqali kimningdir hayoti qutqarib qolinadi. Buni yuqorida bir necha dostonlardan olingan misollar vositasida tahlil qildik. Bu esa xalq og'zaki ijodida maktublarning munosib o'rnini borligiga dalildir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Горбачева Е. Ю, Мигулина А. В., Епостолярный в историческом контексте. 2. Молодой ученый. 2016 N28.1 (132.1) В. 6-8.
3. Abdurayimova Irodaxon Iqboljon qizi. Maktublar tarixi haqida 2023-yil
4. Alpomish- Toshkent. Ma'naviyat. 1987
5. Dostonlar aytuvchi Ergash Jumanbulbul og'li; yozib oluvchilar Muammadisa Ernazar o'g'li, Hodi Zarif; mas'ul muharrir T. Mirzayev- T. "Sharq", 2011-yil
6. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent- 2006-yil.
7. Kuntug'mish va Ravshan dostonlari. Ergash Jumanbulbul . T. Mirzayev. Sharq 2011-yil. 165-betlar.

<sup>15</sup> Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni

8. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: Akademiya nashri, 2010. – 400 b.
9. M. Qo'chqorova. Maktublar – qalb ko'zgusi // Jahon adabiyoti jurnali, 2009-yil, 11-son. – 18b..
10. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. – T.: Fan, 1993. 693-b.
11. Nasimxon Rahmonov. O'zbek mumtoz adabiyot tarixi. – T., 2014. – 236 b.
12. Natan Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Fan, 1976. – 230b.
13. N. Ganjaviy. Xamsa: Iskandarnoma. – Dushanbe: Adib, 2012. – b.



INNOVATIVE  
WORLD

## VOZEH "SAVONEH UL-MASOLIK" ASARINING MA'RIFATPARVARLIK AHAMIYATI

**Yunuszoda Zulfiya Yunusovna**  
**f.f.n., dotsent. Samarqand davlat universiteti**  
**email: [yunuszodaz@mail.ru](mailto:yunuszodaz@mail.ru)**  
**ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0009-7638-522X>**

**Annotatsiya.** Maqola XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro adabiy muhitida yashab ijod etgan maʼrifatparvarlik adabiyotining namoyandasi Qoriy Rahmatulloh Vozeh "Savoneh ul-masolik fy farosix ul-mamolik" (Yo'llar voqeasi va mamlakatlar masohati) sayohatnomasi tadqiqotiga bag'ishlangan bo'lib, unda asarning janriy xususiyatlari, g'oyaviy mazmuni, muallifning taraqqiyparvarlik qarashlari, siyosiy fikrlari va realistik tasvir usuli tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** sayohatnoma, janr, g'oyaviy mazmun, maʼrifatparvarlik qarashlar, siyosiy fikrlar, realistik tasvir usuli.

### PROSVETITELSKOYE ZNACHENIYE «SAVONEX UL-MASOLIKA» VOZEXA

**Annotatsiya.** "Savonex ul-masolik fy farosix ul-mamolik" ("Dorojnie rasskazi i ploshadi stran") predstavatelya prosvetitel'skoy literaturi, posvyativshego sebya literaturnoy deyatel'nosti vo vtoroy polovine XIX veka v Buxare, takje analiziruyutsya osobennosti janra, ideynoe sodержanie, prosvetitel'skie vzglyadi avtora, politicheskie idei i realisticheskie metodi opisaniy.

**Klyuchevie slova:** xojdenie, janr, ideynoe sodержanie, prosvetitel'skie vzglyadi avtora, politicheskie idei, realisticheskie metodi opisaniy.

### THE ENLIGHTENMENT SIGNIFICANCE OF THE WORK OF VOZEH "SAVONEH UL-MASOLIK"

**Abstract.** The article deals with the research work of Kori Rakhmatulloh Vozeh "Savoneh ul-masolik fi farosih ul- mamolik" ("Travel stories and the areas of the countries") of the literary representative enlightener who lived and worked in the field of literature in the second half of the XIX century in Bukhara. It contains the analysis of the novel's genre peculiarities, a conceptual content, author's progressive views, political thoughts and real- istic descriptive methods.

**Key words:** travel notes, genre, a conceptual content, enlightenment views of the author, political ideas, realistic descriptive methods.

## KIRISH



Qoriy Rahmatulloh binni Oshur Muhammad Vozeh XIX asr adabiyotining namoyandalaridan biri bo'lib 1818-1894 yillarda Buxoro adabiy muhitida yashab ijod etgan. O'z tazkirasida bergan ma'lumotiga ko'ra, u dastlab qoriylar maktabi, keyinchalik madrasada tahsil olib, davrning ma'rifatli va ziyoli kishilaridan biriga aylangan [1,226]. Uning keyingi davrdagi hayoti amir saroyi bilan bog'liq bo'lgan.

Vozeh uch til (o'zbek, fors, arab)da qalam tebratgan mahoratli shoir, tanikli yozuvchi va tazkiranavis olim hisoblanib, tazkiralari uning 11 ta asari haqida ma'lumot beradi. Ammo bizgacha "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob" nomli tazkirasini, "Savoneh ul-masolik fy farosix ul-mamolik" degan safarnomasi, "Aqoid un-niso", "Koni lazzat va xoni ne'mat" asarlari va she'rlaridan ayrim parchalar etib kelgan. Bundan tashqari, Vozehning "Shaqoyiq ud- daqoyiq" ("Har xil ismlar va ularning arboblari to'g'risida"), "Arois ul-abkor va navodir ul-afkor" ("Turfa nasriy va nazmiy hikoyalar"), "Tuhfai amoyan" ("Tibbiyot ilmi haqida risola"), "Usturlob ahvoli haqida" (Hotam Shayx Bahoiy risolasining o'zbek tilidagi tarjimasi) kabi asarlari ham mavjud bo'lib, ular hozirgacha topilmagan.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI** <sup>[1]</sup> <sub>[SEP]</sub>

Vozeh ijodida "Savoneh ul-masolik fy farosix ul-mamolik" yo bu asarning ikkinchi nomi "G'aroyib al-xabar fi ajoyib ul-safar" (Yo'llar voqeasi va mamlakatlar masohati) safarnomasi alohida o'rin tutadi.

Uning qulyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Aburayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida 810 raqami ostida saqlanmoqda. Bu sayohatnoma ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi asar bo'lib, u orqali Vozeh ma'rifatparvar adib sifatida e'tirof etiladi [5, 126]. Qori Rahmatulloh Vozeh ma'rifatparvarlik davri adabiyotida Ahmad Donishdan so'ng safarnoma janrida asar ijod etgan ikkinchi adibdir. Uning safarnomasi "Savoneh ul-masolik va farosix ul-mamolik" (1887) nomi bilan shuhrat qozongan.

Bu asar va uning muallifi haqida T.Ne'matzodaning nomzodlik dissertatsiyasi [4;5] hamda R.Hodizodaning tadqiqotlari mavjud [6], ikkala tadqiqotchi ham Vozehni yorqin ma'rifatparvar adib, uning "Savoneh ul-masolik" asarini ma'rifatparvarlik adabiyoti namunasi sifatida tavsif va tahlil etadi, biroq ikkala olim ham asarning janriy xususiyatlari xususida ma'lumot bermaydi. Oxirgi yillarda ushbu asar haqida ba'zi tadqiqotlar mushohida qilinsa ham [3] ularda asarning mazmuni hamda nusxalari tahlil qilinadi.

#### **NATIJARLAR**

Agar Ahmad Donish o'z safarnomalarini yaratishda fors – tojik mumtoz adabiyotining mazkur qadimiy janrini mazmun va g'oya, ma'rifatparvarlikning yangi sifat va mohiyati asosida yangilagan, uni taraqqiyparvarlik maqsad-muddaosining ifoda vositasiga aylantirgan bo'lsa, Vozeh o'z asari bilan yangi

adabiyotda bu janr an'anasi mavqeyini yuksaltirdi [7,112]. Shubhasiz, Voze Ahmad Donishning ma'rifatparvar aqidalaridan xabardor edi, o'z safarnomasini undan ta'sirlangan, izdoshlik qilgan holda yaratdi.

Bu davrda Ahmad Donish ijodida yuzaga kelgan yangi ma'rifatparvarlik safarnomasi Voze ijodida an'anaviy safarnoma bilan uyg'unlashgan holda yuz ko'rsatdi [8,56]. Voze an'anaviy safarnomaning shakliy doirasida, haj safari taassurotlarini qalamga olib, buning zaminida musulmon Sharq davlatlari hayotidagi oddiy, muqarrar hamda g'aroyib narsalar qatorida yangi hayot nishonalari, madaniy va ilmiy-texnikaviy yangiliklarni ham ilg'adi, tasvir etdi. Ibratomo'z narsalar va zamonaviy ilm- texnikaning qudratiga asarda unchalik ko'p ma'lumotlar berilmagan. Sharq mamlakatlaridan boshlangan bu sayohatida yozuvchi yangiliklar hamda ularning ahamiyatini asosan Sharq G'arb mamlakatlari bilan tutashgan joylarda kengroq tasvirlaydi. Muallif ilm texnikaning yangicha qudratini dastlab Yangi Marv, keyinchalik Istanbul, Yunon, Iskandariya, Tehronda kuzatganini qayd etadi. Asarda oddiy narsa-hodisalar bilan bir qatorda, Yangi Sharq mamlakatlaridagi yangicha turmush tarzi, ilmiy yuksalishni keng tasvirlaydi. Aynan shu hol uning safarnomasiga zamonaviy ruh baxsh etib, Ahmad Donish va boshqa ma'rifatparvar yozuvchilarning safarnomalariga yaqinlashtirdi.

Vozeining ma'rifatparvar g'oyalarini bayon etish usuli Ahmad Donish va boshqa ma'rifatparvar adiblar safarnomalaridagi uslubdan farq qiladi. Bu uslub safar mushohadalarining xolis va betaraf bayonidan, yurt va xalqlar hayot tarzining ob'ektiv tasviri, mushohada etilgan narsa va hodisalar mohiyatini o'z tilida bayon etish, fakt va raqamlar keltirishdan iborat. Ahmad Donish asarida bo'lganidek muallifning narsa va hodisalarga sub'ektiv munosabati, ularning muayyan mafkura nuqtai nazaridan sharh va izohi, fakt va hodisalarning tahlil va tadqiqi Voze safarnomasiga xos emas. Voze ko'rgan va qalamga olgan narsa-hodisalarga nisbatan, xoh ular ilg'or va yangi bo'lsin, xoh eski va qoloq bo'lsin, ijobiy yoxud salbiy nuqtai nazarini oshkora izhor etmaydi, ularga baho bermaydi. Uning tasvir uslubi o'zi ko'rgan shahar va qishloqlardagi xalq hayoti haqiqatini xolis qalamga olishdan iborat. Bu borada yozuvchi asar muqaddimasida nozik ishora bilan safar davomida ko'rgan har bir shahar va qishloq, ulardagi ajoyib va g'aroyib hodisalarni "mazhabiy takalluf va tasanno'ъ hamda milliy taassub va tasalluflardan qat'iy nazar" [2, 4] faqat ularning voqeyiy haqiqati e'tiboridan qalamga olishni istaganligini ta'kidlaydi.

### **MUHOKAMA**

Bu asarda odatda ma'rifatparvarlik safarnomalarida mavjud bo'ladigan his-hayajon, hayrat va taajjub hamda publitsistik uslubga xos dardu iztirob ko'zga tashlanmaydi. Voze asarida muallifning ob'ektiv ma'rifatparvarlik munosabati ba'zi shaharlarda ko'rgan bir qator ilg'or va namunaviy narsa-hodisalarda o'z ifodasini topgan.

Bu asardagi betaraflik va safar hujjatlarining ob'ektivligi jumladan Nosir Xusrav safarnomasini yodga soladi. Biroq uning safarnomasi bir tomondan oldingi davr safarnomalari anʼanasining davomi bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamon talablariga mos holda ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Shunga ko'ra aytish mumkinki, Vozeh safarnomasida ham ma'rifatparvarlik davrining boshqa safarnomalari kabi mazkur janrning yangilanishi amalga oshgan. Biroq bu yangilanish, guvoh bo'lganimizdek, janr an'anasi zimnida va unga bog'liq bo'lgan holda bo'y ko'rsatdi.

Vozeh o'z safarnomasida voqego'y (realist) yozuvchi sifatida ish tutgan. Uning voqe'go'yligi narsa va hodisalarni aynan, o'zgarishsiz hujjatli tarzda qalamga olishda ko'rinadi. Ularning tahlil va mohiyatini aniqlashni muallif o'z burchi deb bilmaydi. Uning asari bayon xususiyatiga ega bo'lib, faqat ma'lumot berish, hujjat keltirish, voqebayonlikka asoslanadi. Tasvirlanayotgan voqea-hodisalar tahlilini esa muallif o'quvchi ixtiyoriga topshiradi. Vozeh safarnomasida tasvir ob'ekti bo'lgan shahar va qishloqlar hayotini o'z vatanidagi voqelik bilan qiyos etmasada, vatandosh o'quvchilariga bunday qiyoslash uchun imkon yaratadi. Bu ijodiy printsip sayohatnoma janrining asosiy xususiyatlaridan biridir. Shuni ham ta'kidlash joizki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida milliy adabiyotlarda realizmning ilk kurtaklari ma'rifatparvar adabiyoti vakillari ijodi asosida yuzaga keldi. Vozeh ham o'z sayohatnomasi orqali realist yozuvchi sifatida namoyon bo'ladi. U narsa – hodisalarni hayotda qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlaydi. Ularning tahlili va tadqiqini o'quvchilar hukmiga havola qiladi. U har xil hikoyat va naqllar orqali, xususan, musulmon Sharq mamlakatlarida kuzatgan ilmiy texnikaviy taraqqiyotni xolisona taʼriflaydi. Yozuvchi bu bilan o'z vatandoshlariga “dunyoning taraqqiyot pallasiga kirganligini, ular esa undan yiroqda qolganligini, ularning hayot tajribalaridan ibrat olmoqlik”ni o'qtirmoqchi bo'ladi. U o'z vatandoshlari ongiga iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy yuksalishlar natijalarini singdirishga harakat qiladi. Aslida asarning yaratilishiga ham ayni shu maqsad asos bo'lgan.

Vozeh safarnomasi ma'rifiy xarakterga ega bo'lib, bu narsa uning janr xususiyatlariga muvofiq tushgan. U ma'rifatparvar adib sifatida moddiy va maʼnaviy rivojlanishni faqatgini zamonaviy bilimlarni egallash orqali qo'lga kiritish mumkinligini ta'kidlaydi. Muallifning bu fikrlari o'sha davrdagi Buxoro madrasalarida o'qitiladigan sxolastik taʼlim printsiplariga mutlaqo qarama – qarshi edi. U dunyoviy ilmlarning rivojlanishi hamda kashfiyotlarning vujudga kelishini davlat ishlarining bir qismi, deb biladi, ularni barchasi davlat va xalq manfaatlariga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Vozeh safarnomasida yozuvchining ma'rifatparvarlikka yo'naltirilgan siyosiy nazariyasi ham o'z ifodasini topgan. Yozuvchi hamsuhbati (karbalolik kishi) tilidan o'sha davr boshqaruv tizimi masalasiga oid o'z mulohazalarini bayon etib, Evropa mamlakatlarida din davlatdan ajratilganligini taʼkidlaydi.



Vozeh karbalolik kishining nutqi vositasida davlat boshqaruvida hukmdorning qonun va konstitutsiyaga amal qilishi, Ahmad Donishga zimdan ergashgan holda Buxoro amirligida “nizom va zakun” ning joriy qilinishini istaydi.

Vozeh safarnomasida yozuvchining muayyan taraqqiyparvar siyosiy fikrlari tizimi o'ziga xos uslubda bayon etilgan. Bu fakt va hujjatlar tili bilan safar davomidagi ibratli narsa-hodisalarni qalamga olish vositasida ma'rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik g'oyalarini talqin etish uslubidir. Safarnoma sodda va tushunarli tilda yozilgan bo'lib, yozuvchi har xil munosabat bilan texnika va uning ashyolari, Evropa madaniyati va turmushiga xos narsalar haqida so'z borganda, ruscha-internatsional so'zu istilohlardan foydalanadi.

### **XULOSA**

Vozehnin “Savoneh ul-masolik” asarida Ahmad Donishning safarnomasiga qaraganda ilg'or ma'rifatparvar aqidalar ozroq bo'lsada, undan keyingi ma'rifatparvarlik adabiyotidagi sayohatnomalarning shakllanishida muhim rol o'ynadi. Vozech safarnomasining bosh xususiyati uning ma'rifatchilik yo'nalishda ekanligidadir. Muallif boshqa xalqlar ma'rifati, o'zga shahar va mamlakatlardagi taraqqiyotni aks ettirish vositasida kitobxon tafakkurini uyg'otishga intilgan. Bu asarda yozuvchi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or turmush tarzini, uning taraqqiyot omillarini ko'rsatish orqali o'quvchiga o'z xalqi ahvolini tushunishga imkon beradi, vatandoshlarini ma'rifatga chorlaydi, millatni fikriy uyg'oqlikka davat etadi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Vozech Qoriy Rahmatullo. Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul- ashob. – Dushanbe, 1977, 226 b.
2. Vozech Qoriy Rahmatullo. Savoneh ul-masolik fy farosix ul-mamolik. O'R FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. 810 raqamli qo'lyozma. – 153 b.
3. Idiev A. A. “G'aroyib al-xabar fi ajoyib ul-safar” asarining mazmuni va nusxalari xususida. //XXI Asr: Fan va ta'lim masalalari (XXI Vek: Voprosi nauki i obrazovaniya). – 2024. – T. 2. – №. 2. – B. 397-404.
4. Ne'matzoda T. Dar borai Vozech va asari o' “Savoneh ul-masolik fy farosix ul-mamolik”. –Stalinobod: Nashr. Davl. Tojik. 1957. – 48 b.
5. Ne'matzoda T. Vozech. –Deshanbe: Irfon, 1965. –230 b.
6. Hodizoda R. Adabiyoti tojik dar nimai duvvumi asri X1X. –Dushanbe: Donish, 1968. –294 b.
7. Yunuszoda Z.Yu. Istoriya poyavleniya i formirovaniya janra puteshestviya v tadjikskoy literature //BBK 1 E91. – 2019. – S. 112.
8. Zulfiya Y. Evolutional development of the genre of travel notes //European research. – 2016. – №. 10 (21). – C. 55-58.



<b>MUNDARIJA   TABLE OF CONTENTS   СОДЕРЖАНИЕ</b>		
<b>1.</b>	<b>"DAMAS" RUSUMLI TRANSPORT VOSITALARINING HARAKATINI TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR</b> <b>Nasirov Ilxam Zakirovich</b>	<b>3</b>
<b>2.</b>	<b>SHAHAR CHORRAHALARI UCHUN AVTOMOBILLARDAN CHIQAYOTGAN ZAHARLI MODDALAR MIQDORINI ANIQLOVCHI QURILMANING AFZALLIKLARI</b> <b>Nasirov Ilxam Zakirovich</b>	<b>9</b>
<b>3.</b>	<b>АВТОМОБИЛНИНГ СЎНДИРГИЧЛАРИНИ ТАЪМИРЛАШ УСУЛЛАРИ</b> <b>Насиров Илхам Закирович</b> <b>Қўзиболаева Дилноза Тўхтасиновна</b>	<b>13</b>
<b>4.</b>	<b>SOTSIATIV NUTQIY AKTLAR</b> <b>H.R.Zakirova</b> <b>T. Madaminova</b>	<b>18</b>
<b>5.</b>	<b>70-80-YILLAR SHE'RIYATIDA "SAN'AT" MAVZUSIGA MUROJAAT (XURSHID DAVRON SHE'RIYATI MISOLIDA)</b> <b>Maxmudov Sardorbek</b>	<b>24</b>
<b>6.</b>	<b>Sharx nutqiy janrining siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati</b> <b>Ismoilova Odinoxon A'zamjon qizi</b>	<b>28</b>
<b>7.</b>	<b>XALQ OG'ZAKI IJODIDA MAKTUBLAR</b> <b>Murotova Ismigul Bobomirzayevna</b>	<b>36</b>
<b>8.</b>	<b>VOZEH "SAVONEH UL-MASOLIK" ASARINING MA'RIFATPARVARLIK AHAMIYATI</b> <b>Yunuszoda Zulfiya Yunusovna</b>	<b>41</b>



# INNOVATIVE WORLD